

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Iordaniya Hoshimiylar Podshohlari Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn 25-avgust kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



istagini namoyon etmoqda. Joriy yilda diplomatik pasport egalari uchun viza rejimini bekor qilish to'g'risidagi bitim, shuningdek, Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2025-2027-yillarga mo'ljallangan qo'shma hamkorlik dasturi imzolangani e'tiborli. Bu

Iordaniya Podshohining O'zbekistonga oliy darajadagi tashrifi davlatlarimiz o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini yanig'ina bosqichda davom ettirish uchunni imkoniyat yaratishi kutilmoqda. Bu o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sarmoyaviy

davlatchilik siyosati, harbiy mahorati, turli mamlakatlar bilan diplomatik aloqalari haqida soʻzlab berildi. Sohbiqironning hayoti va faoliyati, u tuzgan davlat oʻz davrining eng ulkan mamlakati boʻlgani mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

**Ziyodilla JONIBEKOV,
G'olib HASANOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'zA maxsus muxbirlari**

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-avgust kuni Samarqandga tashrif buyurdi. Ezgu an'anaga muvofiq, avvalo, Imom Buxoriy maqbarasi ziyorat qilindi. Qur'on tilovat etilib, duo o'qildi.

O'zA

Mamlakatumizda keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirish, yurtimizning iqtisodiy taraqqiyotini, farovonligini taʼminlash, Yangi Oʻzbekistonda miqyosdagi obroʻ-eʼtibori va nufuzini yuksaltirish uchun, joriy etish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatini, hududlarni infratuzilmasini jadal rivojlantirish boshqariladigan, jamiyatimizda ijtimoiy-maʼnaviy xizmatlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va savdo, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ibratli faoliyati hamda jamoat ishlaridagi faol ishtirok qayd qilgan mukofotlansin:

**“O‘zbekiston Respublikasida
ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xo‘jayini
faxriy unvoni bilan**

Xalilov Nasriddin — Samarqand davlat tibbiyot akademiyasi meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya fakultetining sitetining o'qituvchisi, o'simlikshunoslik va yem-xashsh bo'yicha kafedrasining mudiri, Samarqand viloyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O'TTIZ TO'RT YILLIGI MUNOSABATI BILAN DAVLAT
XIZMATCHILARI HAMDA ISHLAB CHIQARISH VA ITIMOIIY-IQTISODIIY SOHALAR XODIMLARIDAN
BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA**

**“O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi”
faxriy unvoni bilan**

Kudratov Uktam Aralovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Qizilqum kon boshqarmasi “Pistali” koni bosh muhandisining o‘rinbosari

**“O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan geolog”
faxriy unvoni bilan**

Urazmetov Shermuxammad Djumabayevich —
“O‘zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyatining “Ustyurt
geofizika ekspeditsiyasi” filiali geologiya-geofizika ishlarini
istiqbolli prognozlash bo‘limi boshlig‘i

Hamroyev Umarjon Artiqovich — “Navoiyuran” davlat korxonasining “Uran va noyob metallar geologiyasi” ilmiy- ishlab chiqarish markazi geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi bosh geologi

**“O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan quruvchi”
faxriy unvoni bilan**

Tursunov Jamshid Yunusovich — O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi raisi

Xidoyatov Sherzod Saidjanovich — O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri

**“O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan tadbirkor”
faxriy unvoni bilan**

Vaxabov Davron Abdujalalovich — O'zbekiston
Savdo-sanoat palatasi raisi

Saidmuradov Uktam — Samarqand tumanidagi
“Stekloplastik” mas’uliyati cheklangan jamiyati raisi,
Samarqand viloyati

Davomi 2-betda

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

ASRLARGA TATIGULIK BUYUK E'TIBOR

BEKOBOD TUMANIDA YANGI TARAQQIYOTNI BOSHLAB BERDI

Har kuni tong salqinida uch-to'rt nuroniy qizil-sariq rangli, pishiq-puxta qurilgan piyodalar yo'lakhasiga tushib olib, "Dalvarzin" dahasidan to tuman markazigacha borib-qaytguncha dildan suhbatlashishni odat qildik. Ilgari mashinalarning tug'iz harakatidan cho'chib chash bosgan tutqator tagi bo'ylab — tuproq kechib yurishga majbur edik. Bunday yo'lda sayr qilish kimga ham yoqardi... Shungami, nahorgi oshdanmi, biron yumushdanmi qaytardigu, tezgina xayrlashib uy-uyimizga kirib ketardik. Hozir esa tong shabadasida, xavfsiz va keng yo'lakhadan yurib, gurungimiz qizigandan qizib, besh-olti kilometr masofani qanday bosib o'tganimizni bilmay qolamiz.

Inson bolmasi yaxshi sharoitga tez ko'nikadi, xudbi avvalidan hammasi shunday turgandek, sanab sanog'iga yetib bo'lmay yangilanishlar oldindan hayotimizda bo'lgandek ortdagi voqealarni oson unutadi. Ammo insof bilan aytganda, bu qulayliklar yaratilguncha, xalqning buguni kechagi kunidan yaxshi bo'lguncha qancha odamning sochi oqarganini, kun-u tun orom bilmay zahmat chekkanini hech qachon esdan chiqarmaslik kerak.

Davomi 3-betda



BIR-BIRIDAN UZOQDA BO'LGAN MAMLAKATLAR O'RTASIDA HAM UZILMAS RISHTALAR YARATILISHI MUMKIN

O'zbekistonning Iordaniyadagi faxriy konsuli Luay Abu-G'azzoliy "Dunyo" AA uchun intervyusida Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning O'zbekistonga boshlangan davlat tashrifi haqidagi fikrlarini bildirdi:

So'nggi yillarda, ayniqsa, 2025-yilda ikki tomonlama munosabatlarda misli ko'rimlarga darajaga yetdi, bunga yuqori darajadagi tashriflar, iqtisodiy kelishuvlar va madaniy almashinuvlar ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonning Iordaniyadagi Faxriy konsuli sifatida men shaxsan o'zim hech qachon kuzatilmagan dinamik mulqotning guvohi bo'ldim va ishonchim komilki, kelgusida hamkorlik qilish imkoniyatlari juda katta.

Iordaniya Bosh vaziri o'rinbosari, tashqi ishlar va muhojirlar vaziri Ayman Safadiy bilan bo'lib o'tgan muzokaralarda siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Tashrif yakunida asosiy kelishuvlar, jumladan, diplomatik pasport egalari uchun vizadan o'zod etish va ikki tomonlama hamkorlik dasturi imzolandi. Mazkur kelishuvlar almashinuvarlari osonlashtirib, xalqlar va rasmiy aloqalarni mustahkamlashga sodiqlikning ramzi bo'ldi.

Davomi 4-betda



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ TO‘RT YILLIGI MUNOSABATI BILAN DAVLAT XIZMATCHILARI HAMDA ISHLAB CHIQARISH VA IJTIMOY-IQTISODIY SOHALAR XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi” faxriy unvoni bilan

Soy Nikolay Valerevich — “Uzbekistan airways technics” mas’uliyati cheklangan jamiyatining G’arbda ishlab chiqarilgan samolyotlarga texnik xizmat ko‘rsatish markazi muhandisi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist” faxriy unvoni bilan

Qudratxo‘ja Sherzodxon Tojiddinxon o‘g‘li — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya-lar universiteti rektori

“El-yurt hurmati” ordeni bilan

Ayimbetova Gulxatsha Aymanovna — “Ayqlash” qoraqalpog‘iston milliy folklor ansambli vokal artisti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Ganiyeva Matluba Maxamajanovna — Andijon tumanidagi “Orol” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, Andijon viloyati

Nematova Nargiza Isamiddinovna — Olot tumani hokimi, Buxoro viloyati

Saidov Sirojiddin Saloxovich — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zosi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

Tomishova Aksavli Moldagalieyevna — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zosi, Zarafshon shahridagi 9-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi direktori, Navoiy viloyati

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Berdikulov Asatulla Hasanovich — Sardoba tumanidagi “A.Qodiriy” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Sirdaryo viloyati

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Ishmetov Timur Amindjanovich — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi

Muradov Mansuriddin Nasirovich — Respublika “Usto” uyushmasi raisi

Xidirov Lochin Shopulotovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi sex uchastka ustasi

“Do‘stlik” ordeni bilan

Akbarjonov Aziz Akbarjon o‘g‘li — O‘zbekiston sanoat-qurilish banki” aksiyadorlik tijorat banki boshqaruvchi raisi

Akramova Xushvaxt Norkulovna — Buxoro shahridagi “Birodar shaharlar” jamiyati raisi, Buxoro viloyati

Arziyev Farhod Nuritdinovich — O‘zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi

Atabayev Shuhrat Xalidarovich — O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki boshqaruvchi raisi

Baxramov Shamirza Pashayevich — Sirdaryo tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi texnik-gidrometri, Sirdaryo viloyati

Irgasheva Marxamat — Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Asaka” mahalla fuqarolar yig‘ini nuroniylar jamoatchilik kengashi raisi, Toshkent shahri

Ismoilov Xabibidin — Farg‘ona tumanidagi dehqon xo‘jaligi bog‘boni, Farg‘ona viloyati

Israilov Ismail Irkinovich — Toshkent shahridagi “Development and Marketing Group” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktorining o‘rinbosari

Kuchkarov Baxrom Tulkinovich — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisining o‘rinbosari

Qodirov Akmal Sayfulloyevich — “Enter Engineering Pte. Ltd” kompaniyasining Imom Buxoriy majmuasi qurilish loyihasi rahbari

Muxammatova Dilbar Davranovna — Termiz tumanidagi “Namuna” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, Surxondaryo viloyati

Nabiyeva Paraxat Raxmatullayevna — Sharof Rashidov tumanidagi “Hukumatoy Mirzaaliyeva” biolaboratoriya rahbari, Jizzax viloyati

Narimbetov Yuldash Ibragimovich — Beruniy tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Nasirov Kuziboy — Qiziltepa tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Navoiy viloyati

Primov Orifjon Xasanovich — Parkent tumani nuroniylar jamoatchilik kengashi faoli, Toshkent viloyati

Raximova Nigina Xayrullayevna — “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi direktori

Sadovnikov Vladimir Vladimirovich — Namangan shahridagi “Proyekt-servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Namangan viloyati

Sanayev Ismat Sanayevich — O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Paxtachi tumani Kengashi raisi, Samarqand viloyati

Seytekov Turganbay Berdanovich — Nukus tumani yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi asfalt yotqizish mashinasi haydovchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Sirotin Igor Vasilevich — “Uzbekistan airways technics” mas’uliyati cheklangan jamiyatining G’arbda ishlab chiqarilgan samolyotlarga texnik xizmat ko‘rsatish markazi muhandisi

Saatov Mumin — Ko‘kdala tumani nuroniylar jamoatchilik kengashi faoli, Qashqadaryo viloyati

Tashmatov Tajidin Satvoldiyevich — Andijon viloyati yo‘llardan muntazam foydalanish davlat muassasasi avtogreyder haydovchisi

Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich — “Asaka” aksiyadorlik tijorat banki boshqaruvchi raisi

Tursunov Rashit Raxmonovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 3-avtobaza boshlig‘i

Umerova Gayane Olegovna — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining departament boshlig‘i

Usmanov Ravshan Abrorovich — O‘zbekiston Respublikasining Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi

Fayziyeva Vasila Solixovna — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Fan, ta‘lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi a‘zosi

Fayziyeva Dilorom Xusniddinovna — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari

Fedin Aleksandr Grigorevich — Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Qotepa” ov xo‘jaligi boshlig‘i, Surxondaryo viloyati

Xasanov Nazirjon Nabijanovich — “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchi raisi

Xojiboyev Erkinjon Valijonovich — Xonobod shahri obodonlashtirish boshqarmasi ko‘kalamzorlashtiruvchisi, Andijon viloyati

Sheraliyev Kurbonali — Xovos tumani nuroniylar jamoatchilik kengashi faoli, Sirdaryo viloyati

Shermatov Zikrilla Shukurovich — “Nuroniylar” jamg‘armasining Koson tumani bo‘limi raisi, Qashqadaryo viloyati

Shonagmetova Nina Yefimovna — “O‘rta Chirchiq gidroelektrstansiyalari kaskadi” filialining ishlab chiqarish-texnik bo‘limi yetakchi muhandisi, Toshkent viloyati

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Abdiyev Jaxongir Ibragimovich — O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi raisining o‘rinbosari

Abdullayev Tulqin Mansurovich — O‘zbekiston Respublikasi Kadastir agentligi direktorining o‘rinbosari

Abdusattarov Tulkin Sayfullayevich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

Abidov Akmal Djurabayevich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

Avezov Jasurbek Shavkatovich — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mas’ul xodimi

Bekmirzayev Diyorbek Abdugapporovich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

Butayev Orif Aliboyevich — “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat banki boshqaruvchi raisi

Galtemirov Sharof Qurbanbayevich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

Djxangirova Ella Anatolevna — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining departament boshlig‘i

Jumaniyazov Nodir Kadamovich — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mas’ul xodimi

Jurayev Baxodir Ibragimovich — “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati raisi

Ismailov Murad Valijonovich — O‘zbekiston Respublikasi sport vazirining o‘rinbosari

Isxakova Guzal Gayratovna — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mas’ul xodimi

Kadirov Shuxrat Munavvarovich — O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi direktori

Kilichov Timur Masharibovich — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mas’ul xodimi

Qarshiyev Rustam Jo‘rayevich — O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining o‘rinbosari

Lapasov Ulugbek Xidirovich — O‘zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi doimiy vakili

Mirakulov Miravzal Mirodilovich — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mas’ul xodimi

Miraxmedov Ziyod Maxamadjanovich — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mas’ul xodimi

Mutalov Zoxiriddin Abdugapurovich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

Raximova Gulnora Xashimovna — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining o‘rinbosari

Raxmatov Feruz Kasimovich — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mas’ul xodimi

Saidolimov Saidxon Tal‘at o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mas’ul xodimi

Tangriyev Izzat Raxmatullayevich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

Umarov Olimjon Muxamadjanovich — O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari

Xaydarov Jahongir Baxtiyarovich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

Xodjayev Furkat Salimovich — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mas’ul xodimi

Xolmurodov Nozimjon Qosimovich — O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining birinchi o‘rinbosari

Xolxo‘jayev Saidqahhor Muhammadkarim o‘g‘li — Chilonzor tumani hokimi, Toshkent shahri

Xoshimov Nodirbek Anvarjonovich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

Yuldashev Kaxramon Anvardjanovich — O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirining o‘rinbosari

Yusupbayev Shuxrat Mashxurovich — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Tulabayev Mirzaali Erkabayevich — Qo‘qon shahri nuroniylar jamoatchilik kengashi sport targ‘ibotchisi, Farg‘ona viloyati

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Bozorov Mirshodbek Shukur o‘g‘li — Romitan tumanidagi “Tarnaut” mahalla fuqarolar yig‘ini yoshlar yetakchisi, Buxoro viloyati

Majidov Bobomurod Bahrnonovich — Toshkent shahridagi “Akfa Dream World” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori o‘rinbosari

“Jasorat” medali bilan

Ablayeva Farog‘at Murtazayevna — Uchtepa tumanidagi zargarlik buyumlari yasovchi hunarmand, Toshkent shahri

Jumayeva Shohida Qulmatovna — Sherobod tumanidagi kasb-hunarga o‘qitish markazining “Qorabog‘” o‘quv maskani tikuvchisi, Surxondaryo viloyati

Imomaddinov Xalilla Kamolovich — Shovot tumanidagi “Xo‘jaobod-2018” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Xorazm viloyati

Mansurov Zamir Baqoyevich — Vobkent tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Buxoro viloyati

Oripova Zuxraxon A‘zamovna — Oltiariq tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Farg‘ona viloyati

Ro‘ziyeva Shahlo Mansurovna — Tomdi tumani sport maktabining shaxmat bo‘yicha murabbiysi, Navoiy viloyati

Safarov Muzaffar Shavkatovich — Narpay tumanidagi maishiy texnikalarni ta‘mirlash ustasi, Samarqand viloyati

Soliyev Lutfulloljon Sobitovich — Chust tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, tikuvchi, Namangan viloyati

Suyunov Mansur Xalilovich — Forish tumanidagi video montaj ustasi, Jizzax viloyati

Turdiqulova Sayora Sharofovna — “Hunarmand” uyushmasining Kitob tumani bo‘limi a‘zosi, kashtado‘z, Qashqadaryo viloyati

Xudoyberdiyeva Nodira Xomidjanovna — Shahrixon tumanidagi hunarmand-tikuvchi, Andijon viloyati

Shakirov Ilxam Gavazovich — Oqoltin tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, fotosuratchi, Sirdaryo viloyati

Sharipov Maksud Kenjayevich — Ellikqal‘a tumanidagi avtomobillarni ta‘mirlash ustasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Ergashev Doniyor Azimovich — “Hunarmand” uyushmasining Bo‘ka tumani bo‘limi a‘zosi, yog‘och o‘ymakorligi ustasi, Toshkent viloyati

“Shuhrat” medali bilan

(100 yoshdan oshganlar)

Gadanova Xaticha — Narpay tumani, Samarqand viloyati

Galimova Naziba — Bog‘ot tumani, Xorazm viloyati

Zaripova Narjan — Beruniy tumani, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Imomqulova Suxsurbu — Pop tumani, Namangan viloyati

Kenjayeva Anor — Yangiobod tumani, Jizzax viloyati

Matisaqova Melibu — Buvayda tumani, Farg‘ona viloyati

Narmatov Uraxali — Sardoba tumani, Sirdaryo viloyati

Roziyeva Nazmira Mirsultanovna — Mirzo Ulug‘bek tumani, Toshkent shahri

Tabarov Ikram — Sho‘rchi tumani, Surxondaryo viloyati

Tag‘oyev Juraqul — Xatirchi tumani, Navoiy viloyati

Teshayev Achil — Jondor tumani, Buxoro viloyati

Usmonova Mexri — Chinoz tumani, Toshkent viloyati

Shirnazarov Maxmadali — Shahrisabz tumani, Qashqadaryo viloyati

Yuldosheva Chinixon — Paxtaobod tumani, Andijon viloyati

“Shuhrat” medali bilan

Abduraxmonov Iftixor Ismoilovich — “Temir-yo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyatining Qo‘qon lokomotiv deposi Andijon filiali teplovoz mashinisti, Andijon viloyati

Abdulkimova Gulfuza Abduraxmanovna — Pastdarg‘om tumanidagi “Buyuk Turon” mahalla fuqarolar yig‘ini xotin-qizlar faoli, Samarqand viloyati

Avazov Elmurod Ro‘zimurodovich — Jarqo‘rg‘on tumani hokimi, Surxondaryo viloyati

Adilov Yuldosh Xasanovich — Mirzacho‘l tumanidagi “Mirzacho‘l servis avto” mas’uliyati cheklangan jamiyati avtobus haydovchisi, Jizzax viloyati

Aliyeva Nodiraxon Ibroximovna — Rishton tumanidagi “Agronom Aliyev” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Farg‘ona viloyati

Alimdjano Kamiljan Validjanovich — Davlat rezidensiyalariga xizmat ko‘rsatish va tadbirlarni tashkil etish boshqarmasi chilangar-santexnigi

Allabergenov Murodbek Anvarbekovich — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi direktori

Amanov Oybek Anvarovich — Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori, Qashqadaryo viloyati

Amonov Naim Nasimovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi direktori

Arashov Jalol Samandarovich — Buxoro viloyati hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

Aripov Baxtiyor Muxamedovich — Andijon tumanidagi “Valley Fish” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Andijon viloyati

Artiqov Meliquzi Mamatqulovich — “Sirdaryo-Zarafshon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ekskavator mashinisti, Jizzax viloyati

Askarova Guljamol Shodmanovna — O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bosh mutaxassisi

Baltabayev Xabibulla Mo‘minovich — “UzAuto Motors” aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish direksiyasi payvandlash sexi brigada boshlig‘i, Andijon viloyati

Begmatov Abdulla To‘raqulovich — Boyovut tumanidagi “Boyovutlik Humoyun” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Sirdaryo viloyati

G‘oziyev Nurmatjon Nu‘monjonovich — Bag‘dod tumani “Chekxitoy” mahalla fuqarolar yig‘inidagi hokim yordamchisi, Farg‘ona viloyati

Davlatov Ibadulla Urakovich — Termiz tumanidagi “Qoraxon-Yangiriq” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Surxondaryo viloyati

Dadaxodjayev Nosir Ibragimovich — “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” mas’uliyati cheklangan jamiyatining izolyatsiya va o‘ta kuchlanishdan himoyalash ishlab chiqarish xizmati boshlig‘i o‘rinbosari

Dexkanov Aziz Ravshanovich — Davlat rezidensiyalariga xizmat ko‘rsatish va tadbirlarni tashkil etish boshqarmasi mutaxassisi

Djorayev Djasur Sattiviyeich — Toshkent shahridagi “12-test” aksiyadorlik jamiyatining 2-mexanizatsiyalashgan ko‘chma kolonnasi elektr-gaz payvandchisi

Djumabekova Gulzaynat Xusanovna — “Chirchiq transformator zavodi” aksiyadorlik jamiyatining sex g‘altak o‘rovchisi, Toshkent viloyati

Yodgorov Shuxrat O‘razbayevich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi “Muruntog‘” koni uchastka portlatuvchisi

Imamberdiyev Nadir Askarovich — “Olmalik kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 3-Mis boyitish fabrikasi yanchish va flotatsiyalash sexi tegirmon mashinisti

Iminov Abdulaziz Turdiyevich — Toshkent shahridagi “Green TV” mas’uliyati cheklangan jamiyati mutaxassisi

Irgashev Elyor Aglamovich — “Gidroproyekt” aksiyadorlik jamiyati bosh muhandisi

Kutlimuratova Nigora Masharipovna — Xorazm viloyati hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i

Qodirov Alisher Abdulxatovovich — Qashqadaryo viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari

Qodirov Ro‘zimboy Qurbanovich — “Chapqirg‘oq Amudaryo” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ekskavatorchisi, Xorazm viloyati

Magzamov Azamat Paraxatovich — Kegeyli tumani “Juzim bag‘” ovul fuqarolar yig‘inidagi hokim yordamchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Madatova Onara Djurakulovna — Xatirchi tumanidagi “Langar” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, Navoiy viloyati

Malikova Gulchexra Rixsixo‘jayevna — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bosh ilmiy xodimi

Mamarajabova Bahora Dilmurodovna — “Hunarmand” uyushmasining Navoi



Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

“

Tuman markazida barchamiz uchun aziz Prezidentimizning samimiy kulib turgan siymolariga boqib, o‘zimizcha shunday va’da beramiz: “Siz bizlarga ishonib, muhtaram Prezident, tumanimizni gullab-yashnatish uchun hamisha sizdan kuch va qudrat olamiz. Bundan buyog‘iga Bekobod tumanidan ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin! Siz bizlarga e’tibor qaratdingiz, biz butun tuman jamoatchiligi va xalqi sizga fidokorona mehnatimiz va chinakam sadoqatimiz bilan javob beramiz!”.

Boshlanishi 1-betda

Hali aytganimizdek, “Dalvarzin”dan tuman markazi hisoblangan Zafar shaharchasiga yetib borarkamiz, katta chorrahada bizlarni samimiy tabassum bilan davlatimiz rahbari kutib oladi. Bu mubolag‘a emas! Chunki shu chorrahaga o‘rnatilgan ulkan suratda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev butun Bekobod tumani aholiga qarab, “Men sizlar bilan doim birgaman, barcha amalga oshirayotgan ezu ishlarigizni hamisha kuzatib turibman!” degandek o‘tkir nigoh va samimiy tabassum bilan boqib turadi.

To‘g‘risi, bu holat nafaqat bizlarga, balki butun tumanimiz aholiga kuch va ishonch, ham mador, ham iftixor bag‘ishlaydi.

Yoshi ulug‘lar yaxshi eslaymiz, Prezidentimiz Bosh vazir bo‘lib ishlab yurgan kezlarda Bekobod tumaniga juda ko‘p kelgan. Bu yerning har bir qarichini, har bir konturni, odamlarining fe‘l-atvorini, hududning o‘ziga xos tabiatini bizdan ham yaxshiroq biladi. Achamayli yoki Xos mahallasi bo‘ladimi, Dalvarzin yo Qolg‘onsir mahallasimi, nullas, 51 ta mahallaning hammasini qadam-baqadam borib ko‘rgan, odamlarni eski qadrdondek yonlariga olib suhbatlashgan, hududning eng og‘ir nuqtalarini shaxsan o‘zi o‘rganib, muammolarga doim yechim topgan.

Tojikiston bilan yondosh 86 kilometr chegarani piyoda yurib, sarhadlarni mustahkamlash, chegaradagi xonadonlarni ko‘chirish va ularni uy-joy bilan ta‘minlash ishlariga bosh-qosh bo‘lgan. Bularni unutib bo‘ladimi axir?

U paytda davlatimiz suv olishning naqadar og‘irligini hozir eslasak, buning uchun qanchalar mashaqqat chekilganini chuqur his qilamiz. Biz keksalar u kishining cho‘lli hududlarimizga, ayniqsa, bekobodliklarga mehri o‘zgacha ekanligini hamisha sezib turardik.

Shu kunlarda davlatimiz rahbarining bizlarga g‘amxo‘rlik va e’tiborining oliy namunasi sifatida Bekobod tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha tarixiy qarorlaridan tumanida yashayotgan yosh-u qari birdek ruhlanib yuribmiz. Eski zamonlar-ku mayli, ammo yaqin-yaqingacha ham tuzukroq e’tibor ko‘rmagan, qoloq tuman deb qarab kelingan, poytaxtdan yuz chaqirimgina berida bo‘lsa ham, rivojlanishdan ancha ortda qolib ketgan bir hududga shuncha mehr, shuncha e’tibor, buyog‘ini ham dangal aytganda, shuncha mablag‘ni kim beribdi, deysiz?

Prezidentimizning ushbu qarori sabab butun Bekobod tumani ulkan qurilish-bunyodkorlik maydoniga aylanib, hali sa-yilgohlar, hali sport majmualari, bog‘chayu maktablar qurila boshlansa, bir tomonda yetti ajdodimiz ham ko‘rmagan, ularga faqat orzu bo‘lib qolgan oqova suv tarmoqlari tortilsa, asfalt bo‘lmagan ko‘chayu yo‘llar qolmasa, minglab eskirgan simyog‘ochlar to‘liq yangi beton ustunlarga almashtirilayotgan bo‘lsa, ochig‘i, aqling shoshib qolar ekan.

Ilgari deng, televizordan qaysidir joyda baland bino-imoratlar ko‘tarilganini ko‘rsatsa, yuragimiz bir orziqib qo‘yardi. “Ha, endi ko‘rkam va baland inshootlar markazlar uchun-da, bizning chekka tumanga kim qo‘yibdi...”, deb o‘zimizni ham ovutardik, ham sovitardik.

Endi naq tuman markaziga “Yangi Bekobod siti” massivi tusharmish, shu yerda yigirma ming aholi uchun uy-joydan tortib, guzar-u sport komplekslari, sa-yilgohlar-u suv havzalari, yoshlar markazi-yu maktab va bog‘chalar qurilarmish degan ovozani eshitib lol qoldik. Allaqachon mutaxassislar va arxitektorlar loyihalash ishlarini qizg‘in boshlab yuborishdi ham.

To‘g‘ri, Sirdaryomiz bor edi, tumanimizning qo‘r‘tasidan oqib o‘tardi. Ammo gapning indalosini aytganda, oldingdan oqgan suvning qadri yo‘q ekan-da. Biz uchun hozirgacha ovloq va qamish

ASRLARGA TATIGULIK BUYUK E’TIBOR

BEKOBOD TUMANIDA YANGI TARAQQIYOTNI BOSHLAB BERDI

bosib yotgan daryo sohillari oddiy hol edi, nari borsa, nabiralarimiz mol-qo‘y boqardi. Endi esa shu sohillarga katta kuch va moliyaviy manbalar yo‘naltirilib, 300 o‘rinli bolalar oromgohi, dam olish maskanlari, daryobo‘yi sayilgohlari kabi o‘nlab yangi inshootlar barpo etilishi butun xalqimizning ruhiyatiga malham bo‘lmoqda.

Ming afsuski, u chekkasidan bu chekkasigacha 100 kilometrdan ziyod, aholisi 170 mingdan ortiq hududda hozirgacha biron-ta bozor yo‘q edi. Odamlarning xohish-istaklarini inobatga olib, ushbu qaror bilan bira to‘la ikkita zamonaviy tipdagi bozor barpo etilishi xalqimiz uchun chinakam xursandchilik bo‘ldi.

Bosqichma-bosqich bunyod etilayotgan, barcha sharoitlarga ega mahalla guzarlari, o‘lis va chekka mahallalargacha avtobus qatnovlarining muntazam yo‘lga qo‘yilayotgani tumanimizda haqiqatda xalqni rozi qilish va inson qadriini ulug‘lash bo‘yicha tizimli va amaliy ishlar boshlanganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda yana bir armonimiz orzuga aylanib, orzumiz reallikka ko‘chib, bundan 40 yil avval loyihasi chizilib, ish boshlab keyin tashlab qo‘yilgan Sirdaryo ustidagi ko‘priki aytmasak bo‘lmaydi. Davlatimiz rahbarining o‘lis va chekka hududlardagi xalqni qiynaydigan eng nozik muammolarni ham bilishlariga qoyil qolmay iloy yo‘q. Ular imzolagan qarorda bu masala aks etishi bilan, aholimizning esidan ham chiqib ketgan, orzu ham qilmay qo‘ygan o‘sha ko‘priki va unga tutash 6 kilometr yo‘l jadal sur‘atlarda qurila boshlandi.

Ko‘priki bo‘lsa ko‘priki-da, deyingiz mumkin, ammo bu xalqimiz uchun g‘oyat qadrlil inshoot. Nega deysizmi? Tumdagi 170 mingdan ziyod aholining 7 ta mahallada yashovchi qariyb qirq ming

Davlatimiz rahbari shuncha sharoit-larni yaratib berayotganlarida bizlar fidoyilarcha mehnat qilmasak, qo‘l-ni qo‘lga, dilni dilga bog‘lab, Vatan uchun, uning iqtisodiy qudrati uchun munosib hissa qo‘shmasak, fuqarolik burchimizga ham, vijdon amriga ham, muqaddas qadriyatlarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi.



nafari Sirdaryoning narigi tomonida yashaydi. Tuman markaziga ish bilanmi, to‘ygami, bozor-o‘chargami kelsa, oltmish-yetmish kilometr yo‘l bosib, Bekobod shahri ichidan aylanib o‘tilardi. Yaqin fursatlarda ushbu ko‘priki foydalanishga topshirilsa, tuman markazi bilan masofa ikki barobar qisqaradi, odamlarning qancha vaqti va mablag‘i, asabi tejaladi, ilgari ota-onasini, aka-ukasini, quda-andasini bir oyda ko‘rgan keladiganlar endi har hafta kelaveradi, ko‘ngillar yaqinlashadi, mehlrlar tutashadi...

Tumanimiz tashkil topganiga kelasi yil roppa-rosa yuz yil to‘ladi. Ammo bu maskanda azaldan ota-bobolarimiz ming yillardan beri yashab, ziroat va chorvachilik, hunarmandlik bilan shug‘ullanib kelgan.

Bunga tarixi o‘n asrga borib taqaladigan “Buzruk ota”, “Temiratk ota”, “Qizil

machit” kabi muqaddas qadamlarimiz, qadimiy “Dalvarzin” mavzesi guvohlik beradi. Bobur Mirzo ham bu go‘shani “Boburnoma”da ikki bor qayd etib, ta’rifini keltirgan. Bekobodliklar ham xuddi shu aziz va mo‘tabar maskanlar singari yillar shamolida toblanib, fe‘lu atvori sayqallanib kelmoqda.

Bugun hayot shiddat bilan kechmoqda. Zamonaviy kasb va ilmlarni egallashni davmning o‘zi taqozo qilmoqda. Biz ketmon chopgan bo‘lsak, yangi avlod ilg‘or texnologiyalar bilan ishlamoqda. Tushimizga ham kirmagan tezkorlik bilan dunyoga bog‘lanmoqda. Nevaralarga “AT” nima deb so‘rsak, “Eh, bobojon, soddasiz-da, bu ilg‘or axborot texnologiyasi”, deydi. Biz nuroniylar “ha” deb qo‘yamiz ularning qo‘lidagi shapaloqatni telefonlariga qarab.

Qarorga ko‘ra, tuman markazida “AT” markazi barpo etilib, u yerda yuzlab yoshlar o‘zi yaratgan zamonaviy texnologiya mahsulotlari, dasturlari va xizmatlarini dunyoga sotishi mumkin ekan.

Ammo bizning quvonganimiz undan ham yaxshiroq sabab uchun, ya’ni mana shu yangilanishlar tufayli ko‘chada bekor sang‘ib yurgan yoshlar deyarli qolmadi. Hammasi yo kasb-hunar egallash yoki til o‘rganish bilan mashg‘ul. Buning ortida esa muntazam va halol daromad,

ro‘zg‘ori butun bo‘ladi. Qut-baraka arimaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, odamlarning yerga munosabati ham o‘zgardi. Hozirga qadar unumdorligi past yerlarga paxta va g‘alla ekilaverardi. Tabiiyki, hosil kutilgandek bo‘lmasdi. Endi qarorda ko‘zda tutilganidek, 6,8 ming gektar maydonda paxta va g‘alla qisqartirilib, bog‘ yaratilishi, kartoshkachilik va sabzavotchilikka ixtisoslashtirilishi ayni muddao bo‘ldi.

Aholiga o‘z tomorqalaridan unumli foydalanish uchun kerakli sharoit yaratib berilmoqda. Shu kunlarda tumanimizga kelgan kishi odamlar mehnatidan yashnab turgan dalalarni va tomorqalarni ko‘rib, bahri dili ochiladi.

Shuncha yer maydoni va imkoniyatlar bo‘la turib, hozirgacha hech kim parrandachilik bilan jiddiy shug‘ullanmasdi. Har biri 100-200 ming boshdan parranda boqishga, go‘sh va tuxum yetishtirishga ixtisoslashgan 3 ta kompleks qurilishi tumaning iqtisodiy salohiyatini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tumanda ketma-ket ochilayotgan qator bank ofislari bunday ishlarni amalga oshirish uchun xalqqa ko‘makchi va xayrixoh bo‘layotgani quvonarli.

So‘nggi yillarda Prezidentimizning qat’iy siyosiy irodasi bilan O‘zbekistonimiz

qatorida bizning ham qalbimiz tog‘day ko‘tarildi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari nafaqat xalqimiz, balki butun dunyodagi jafokash insonlarning ham tashvishini o‘ylab, jahon hamjamiyatiga oliy insoniylik namunasini ko‘rsatdi. Urush va ziddiyatlarda benihoya aziyat chekayotgan Falastin xalqiga beminnat muruvvat qo‘lini cho‘zib, ushbu davlatdan yurtimizga olib kelingan mehmonlarga har tomonlama ko‘mak berish bo‘yicha farmonni imzoladi. Falastinliklarni yurtimizga olib kelib, ularga ijtimoiy, tibbiy, psixologik yordamlar ko‘rsatish, farzandlarini maktablarda o‘qitish, umuman, chinakam insoniylik tamoyillari bilan ularning dardiga sherik bo‘lish lozimligini yana bir bor barchaga amalda ko‘rsatdi. Bu tom ma’noda butun dunyo uchun insoniylik darsi bo‘ldi.

Bekobod tumanimiz qo‘shni Tojikiston Respublikasi bilan or ham emas, ko‘p ham emas, yuqorida ta’kidlanganidek, 86 kilometrlik chegara bo‘ylab tutash va yondosh. Bizning dalayu bog‘larimiz ularning tog‘u qirlariga ulangan, bir-birimizga kaftdek namoyon. Shunday ekan, ming yillar bir osmon ostida ahl va inoq yashab kelgan jondosh ellarning asil qo‘shnichilik, chin birodarlik, o‘zaro manfaatli va uzoq muddatli munosabatlarni mustahkamlash faqat va faqat naf keltiradi.

Buni juda to‘g‘ri his qilgan Prezidentimiz mintaqadagi barcha mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunmovchiliklarga to‘la barham berdi, do‘stlik va hamjihatlik ruhi kuchaymoqda, bordi-keldi emin-erkin amalga oshirilmoqda.

Hududimizda joylashgan “Oybek” bojxona posti yonidagi 34 gektar maydonda erkin savdo zonasi va logistika markazi barpo etilayotgani ham ana shu iliq munosabatlarning yaqqol dalilidir.

Qariyb 400 gektar maydonda bunyod etilayotgan sanoat zonasining ta’riflari esa alohida bir mavzu. Biz — Bekobod tumani ahli bundan benihoya xursandmiz va buning o‘ziga xos sabablari bor, albatta.

Birinchidan, uzoq yillar faqat qishloq xo‘jaligi bilan bog‘lanib qolgan tuman va nihoyat sanoatlashgan hududga aylana boshlaydi.

Ikkinchidan, sanoat zonasida qad rostlayotgan turfa xil inshootlar tuman infratuzilmasi va g‘iyofasiga ijobiy tush beradi.

Uchinchidan, bu yerda ishlab chiqarish va tadbirkorlik rivojlangani sari tuman, qolaversa, viloyat va respublika iqtisodiyotiga munosib hissa qo‘shiladi.

To‘rtinchidan, tumanga xorijiy investitsiya oqimi ko‘payadi.

Nihoyat, beshinchidan, amalga oshirilayotgan yangi loyihalarda, eng avvalo, tuman aholisi, yoshlari, o‘zimizning qorako‘zlar mehnat qiladi. Bu minglab ishsizlar bandligi ta‘minlanib, xonadonlarga qut-baraka kiradi, odamlarning yashash sharoiti va daromadi yanada yaxshilanib, ularning islohotlardan rozi bo‘lish hissi ortadi degani.

Yaqin orada Toshkentdan Parkentga, Andijon markazidan Xonobod shahriga poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq xabarni eshitib, tumanlarga ham temir yo‘l tortsa bo‘larkan-da deb o‘ylagandik. Hech qancha fursat o‘tmay, “Endi Bekobod tumanidan poytaxtga elektr poyezdlar yurarkan” degan xushxabarni eshitdik. Qarorda o‘z aksini topgan ushbu masala hademay amalga oshsa, poytaxtga o‘qishga, ishga qatnab qiyalib yurgan, yozning jaziramas-yu qishning ayozi mashina kutib, asabiylashgan odamlar uchun misli ko‘rilgan qulaylik bo‘ladi.

To‘g‘risi, biz — nuroniylar Prezidentimizni poytaxtdan Bekobodga poyezdda kelishlarini va u kishini temir yo‘l vokzalida kutib olishni qanchalar orzu qilganmiz. Inshoalloh, ushbu niyatimiz ham yaqin bir-ikki yilda amalga oshadi.

Xalqimiz uchun qulayliklarning navbatdagi sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshmoqda. O‘tgan uch oyda tuman tibbiyot birlashmasida yuragida tug‘ma nuqsoni bo‘lgan bolalarda noyob va murakkab jarrohlik amaliyotlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Hozirgacha faqat respublika darajasida amalga oshirib kelingan bunday operatsiyalar tumanda ham boshlangani Prezidentimizning sog‘liqni saqlash tizimini aholiga yaqinlashtirish maqsadlariga to‘la mos keladi. Yaqinda tibbiyot birlashmamizda ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyot markazi ochilgani, o‘lis va chekka hududlar aholisi uchun ham muntazam tibbiy ko‘riklar tashkil etilayotgani fikrimizning dalilidir.

Yana bir narsani quvonch bilan aytishimiz kerakki, tumanimizda har kuni adabiyot, san’at va kitobxonlik bayrami bo‘lmoqda. “Har maktabga 100 kitob” loyihasi doirasida poytaxtdan tashrif buyurgan taniqli shoir va yozuvchilar, el suygan san’atkorlar, olim va ziyolilar tumandagi 62 maktabga jami 6200 nomdagi kitoblar jamlanmasini tuhfa etdi. Bu tadbirlar “Dolzarb 90 kun” loyihasi bilan hamohang tarzda o‘tkayotgan uchun katta adabiyot bayrami, qizg‘in uchrashuvlarga ulanib ketmoqda.

Bunday xayrli o‘zgarishlarning bari bizning qalbimizni tog‘day yuksaltiradi, ertangi kunga umidini, qalbmizdagi xotirjamlikni, dilimizdagi quvonchini yana oshiradi.

Ijobiy yangilanishlarni sanab sanog‘iga yetolmaymiz. Kechqurun uyga kirib, tongda ko‘chaga chiqqunimizcha qaysidir bir mahallada, qaysidir muassasada yangilik sodir bo‘lapti. Oqshom bo‘m-bo‘sh turgan maydonlarda ertasiga yangi bir qurilish boshlanaypti. Bularning hammasi Bekobod tumani aholisi uchun bo‘layotgani, qaror ijrosi so‘zsiz ta‘minlanayotganidan bag‘oyat shodmiz.

Shu bois, tuman keksalari Prezidentimizni duo qilayotgan bo‘lsa, yoshlari o‘zlariga yaratilayotgan cheksiz sharoitlarni ko‘rib, belni mahkam bog‘lamoqda. Ro‘stdan ham Bekobod tumanining yanada rivojlanish, aholisi uchun uchun chinakam yashash va mehnat qilish, mehnatlarining rohatini ko‘rish fursati keldi.

Davlatimiz rahbari shuncha sharoitlarni yaratib berayotganlarida bizlar fidoyilarcha mehnat qilmasak, qo‘l-ni qo‘lga, dilni dilga bog‘lab, Vatan uchun, uning iqtisodiy qudrati uchun munosib hissa qo‘shmasak, fuqarolik burchimizga ham, vijdon amriga ham, muqaddas qadriyatlarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi.

Tuman markazida barchamiz uchun aziz Prezidentimizning samimiy kulib turgan siymolariga boqib, o‘zimizcha shunday va’da beramiz: “Siz bizlarga ishonib, muhtaram Prezident, tumanimizni gullab-yashnatish uchun hamisha sizdan kuch va qudrat olamiz. Bundan buyog‘iga Bekobod tumanidan ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin! Siz bizlarga e’tibor qaratdingiz, biz butun tuman jamoatchiligi va xalqi sizga fidokorona mehnatimiz va chinakam sadoqatimiz bilan javob beramiz!”.

Jalolxo‘ja BO‘RIXO‘JAYEV,
“Nuroniylar” jamg‘armasi
Bekobod tuman bo‘limi raisi,
Qosimjon YOQUBOV,
O‘zbekiston Respublikasi
xalq o‘qituvchisi,
“Fidokorona xizmatlari uchun”
ordeni sohibi,
Gulchehra RISQULOVA,
“Qushtamg‘ali” mahalla
fuqarolar yig‘ini raisi,
Xalq deputatlari tuman
Kengashi deputati,
“Do‘stlik” ordeni sohibi



BIR-BIRIDAN UZOQDA BO'LGAN MAMLAKATLAR O'RTASIDA HAM UZILMAS RISHTALAR YARATILISHI MUMKIN

Boshlanishi 1-betda

Tashqi ishlar vazirlari yil davomida muntazam aloqada bo'ldi. Ular Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi kabi ko'p tomonlama tadbirlar doirasida uchrashib, mintaqaviy barqarorlik va islom birdamligi yo'lida mushtarak manfaatlarini ta'kidladilar. 6-avgust kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqot istiqboldagi qo'shma tashabbuslar kun tartibini ilgari surish yo'lidagi yana bir qadam bo'ldi.

Iyun oyida O'zbekistonning Iordaniya-dagi elchisi (qarorgohi Ar-Riyoz shahrida joylashgan) Nodirjon Turg'unov Podshoh Abdulla II ibn al-Husaynga ishonch yorliqlarini topshirib, diplomatik munosabatlarni mustahkamladi.

Iqtisodiy diplomatiya avgust oyida O'zbekiston investitsiya, sanoat va savdo vaziri Laziz Kudratovning Iordaniyaga tashrifi bilan yangi dinamika oldi. Ushbu tashrif



chog'ida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy imkoniyatlar va qo'shma korxonalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Vazir Laziz Kudratov Iordaniya investitsiya vaziri va boshqa muhim shaxslar, jumladan, Iordaniya fosfat kompaniyasi

vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazib, tog'kon sanoati, farmatsevtika va o'g'it sanoati sohaslarida hamkorlik qilish masalalarini muhokama qildi.

Joriy yilning boshida Iordaniya Savdo-sanoat palatasi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Mazkur hujjat ikki mamlakat ishbiarmonlik aloqalarini mustahkamlashda muhim poydevor bo'ldi. O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov ham iqtisodiy masalalarni muhokama qilish, qishloq xo'jaligi va texnologiya kabi sohalarga e'tibor qaratish maqsadida Ammanga tashrif buyurdi.

Madaniy almashinuvlar O'zbekiston — Iordaniya munosabatlarga alohida turtki bermogda. 2025-yil may oyida Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti (ICESO) Samarqand shahrini "Islom dunyosining madaniy poytaxti" deb e'lon qilish bo'yicha tadbirni o'tkazdi. Ushbu faxriy unvon O'zbekistonning buyuk sivilizatsiyalar

chorrahasi sifatidagi tarixiy rolini yana bir bora tasdiqladi.

Tadbir doirasida Iordaniya madaniyat vaziri boshchiligidagi delegatsiya madaniy merosni asrab-avaylash va qo'shma dasturlar ishlab chiqish masalalarini muhokama qilish maqsadida Samarqandga tashrif buyurdi. Bu tashabbuslar Buxorodagi mahobatli masjidlardan tortib, Ajlun qal'asi kabi Iordaniyaning tarixiy yodgorliklarigacha bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi umumiy islom merosini mustahkamlaydi.

Ta'lim sohasi hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi. Iordaniyada tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni ortib bormogda. O'z navbatida, O'zbekiston axborot texnologiyalari, tibbiyot va qishloq xo'jaligi kabi sohalarda almashinuv dasturlarini taklif qilish orqali iordaniyalik talabalar uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu sa'y-harakatlar nafaqat inson kapitalini rivojlantirish, balki xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga ham zamin yaratadi.

Diplomatiyadan tashqari O'zbekiston va Iordaniyaning o'xshash jihatlari ham bor. Har ikki mamlakatda ham aholi barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, global muammolarga qarshi kurashda madaniy an'analarni saqlashni qadrlab, o'z yetakchilarini faol qo'llab-quvvatlamogda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning iqtisodiyotni modernizatsiya qilish borasidagi islohotlari yuksak baholamogda. Xuddi shunday, Podshoh Abdulla II ibn al-Husaynning dono va inkluziv boshqaruv yo'li hamda mintaqaviy murakkabliklarni hal qilish qobiliyati bilan Iordaniyada yuksak hurmatga sazovor bo'ldi.

Hamkorlik salohiyati juda yuqori. Turizm, ayniqsa, istiqbolli yo'nalish sifatida ajralib turadi. Registon maydoni kabi O'zbekistondagi UNESCO obyektlari iordaniyalik sayyohlarni o'ziga jalb qilishi mumkin. Iordaniyadagi O'lik dengiz va Rum Vodi (Oy vodiysi) esa o'zbeklar uchun noyob tajribalarni taqdim etadi. Viza rejimining yaxshilanishi va to'g'ridan to'g'ri

aviareyslarni yo'lga qo'yish bilan sayyohlar oqimi sezilarli darajada oshishi mumkin. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha qo'shma korxonalar O'zbekistonning tabiiy resurslari va Iordaniyaning strategik joylashuvidan foydalangan holda katta salohiyatga ega.

O'zbekiston va Iordaniya o'rtasidagi 25-avgust kuni boshlangan oliy darajadagi muzokaralar mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yangi sahifa — o'zining intensivligi va ko'lamli bo'yicha misli ko'rilmagan bobni ochadi.

Diplomatik bosqichlardan tortib, iqtisodiy kelishuvlar va madaniy sinergiyalargacha bo'lgan o'zaro ta'sirlar mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Faxriy konsul sifatida men bu jadallik xalqlarimizga sezilarli darajada foyda keltirib, Osiyo birdamligining eng yaxshi namunasi bo'lgan hamkorlikni rivojlantirishiga umid qilaman. O'ylaymanki, xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlanadi va hatto geografik nuqtayi nazardan bir-biridan uzoq bo'lgan mamlakatlarimiz o'rtasida uzilmas rishtalar yaratiladi.

“Dunyo” AA,
Amman sh.

Munosabat

“

Mazkur mukofot orqali o'zim uchun ikkita haqiqatni anglab oldim. Birinchi navbatda, “Inson qadri uchun” g'oyasining ro'yobini faoliyatim misolida ko'rdim. Vataniy ravnaqi va xalq farovonligi uchun ozmi-ko'pmi mehnat qilsangiz, albatta, qadr topishi, ezgu tashabbuslar ko'rsatsangiz, qo'llab-quvvatlanishi, imkon yaratib, yo'l ochib berilishi hamda inson salohiyatiga ishonch borligiga amin bo'ldim. Ikkinchidan, xalqimizning naqadar iliq va yoqimli mehrini tuydim. Inson uchun hayotda eng to'g'ri yo'l Vatanga, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish ekaniga ishonch hosil qildim.

YURTGA SADOQAT BILAN XIZMAT QILISH — ENG OLIY SHARAF

Inson tadbirkor bo'lib tug'ilmaydi. U, avvalo, hayotda o'z o'rniga ega bo'lish uchun harakat qiladi, tirishadi, ishlaydi. Ilk qadamlarni kichik yumushlar bilan boshlab, katta ishlar sari odimlab boradi. Albatta, xato qiladi, o'rganadi, tajriba to'playdi va asta-sekin charxlanib boradi. Mening tadbirkorlik faoliyatim ham shunday shakllangan va rivojlangan deb bilaman.



Jahongir ORTIQXO'JAYEV,
“Akfa Group” kompaniyalar
guruhi asoschisi,
“Fidokorona xizmatlari uchun”
ordeni sohibi

Bolaligimda tadbirkorlikka munosabat bugungiday emasdi. Asrlar davomida xalqimizga xos bo'lgan ishbiarmonlikka illat sifatida qaralgan. Sobiq sovet tuzumi davrida “xususiy mulk” degan tushuncha yo'q, boylik o'ttirish esa jinoyat edi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlar “chayqovchi”, “tovlamachi”, “firibgar”, “olib sotar”, “o'g'ri”, “jamiyat dushmani” degan tamg'alar bilan kamsitilardi. Biz shunday og'ir muhitda voyaga yetganmiz va tadbirkorlikning illat emas, aksincha, xayrdi ish ekanini anglab yetishimiz uchun ancha yil kerak bo'lgan. Ehtimol shu tufaylidir, yoshlikda qilyotgan ishlarimiz tadbirkorlik ekanini yaxshi tushunmaganmiz. Kundalik ehtiyojlarni qanoatlantirish, tirikchilik, yashash, oila va farzandlarning moddiy ta'minoti asosiy maqsadimiz bo'lgan. Bora-bora o'zimizning kim ekanimiz, nimalarga qodirligimiz, kattaroq maqsadlar uchun yashash haqida o'ylay boshlaganmiz. Bu maqsadlar bizni jamiyatga foyda keltirish, xalq uchun xizmat qilish, o'zimizdan keyin bir ezgu meros qoldirishga undagan. Shu ma'noda, tadbirkorlik yo'lim — ichki izlanishim, yangiliklarga intilishim, avvalo, o'zinni topishim va xalqqa xizmat qilishim yo'lidagi tabiiy jarayon bo'ldi. Kichik ishlardan boshlangan sa'y-harakatlar katta imkoniyatlarga yo'l ochdi. Bugun o'z mehnatim bilan erishganlarimdan nafaqat moddiy manfaat, balki ma'naviy qanoat ham topayman. O'z o'rnida ko'rmida ko'rmida mahsuldorlik meni yanada yuksak maqsadlarga chorlamogda.

Davlatimiz rahbari shu yil 20-avgust kuni tadbirkorlar bilan uchrashuvda ko'ksimga taqyon orden tadbirkorlik faoliyatimda hali ko'p yangiliklar qilishim kerakligiga bir ishora bo'ldi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Nasib etsa, bor tajriba va salohiyatimiz, kuch-g'ayratimizni iqtisodiyotimiz rivoji, xalqimiz manfaati uchun sarflaymiz. Rostini aytсам, bu mukofot nafaqat men, balki oilam, tadbirkorlik faoliyatimda yonimda yolkama-yelka turib mehnat qilayotgan do'stlarim, hamrohlarim va butun jamoam uchun ham juda katta quvonch, chinakam rag'bat bo'ldi. Aslida, shunday tinch-osoyishta yurtida, taraqqiyot sari dadil odimlayotgan, inson qadri yuksalayotgan mamlakatda yashash, tadbirkorlarni xalqning tayanchi deb biladigan, bizni qalbi bilan tinglaydigan, tushunadigan va yuksak maralar sari ruhlantiray oladigan Prezidentimiz jamoasida xalqqa xizmat qilishning o'zi har birimiz

uchun katta mukofot. Bu yuksak e'tibor va e'tirof uchun, avvalo, davlatimiz rahbariga, jonajon xalqimizga cheksiz minnatdorlik bildiraman.

Mazkur mukofot orqali o'zim uchun ikkita haqiqatni anglab oldim. Birinchi navbatda, “Inson qadri uchun” g'oyasining ro'yobini faoliyatim misolida ko'rdim. Vataniy ravnaqi va xalq farovonligi uchun ozmi-ko'pmi mehnat qilsangiz, albatta, qadr topishi, ezgu tashabbuslar ko'rsatsangiz, qo'llab-quvvatlanishi, imkon yaratib, yo'l ochib berilishi hamda inson salohiyatiga ishonch borligiga amin bo'ldim. Ikkinchidan, xalqimizning naqadar iliq va yoqimli mehrini tuydim. Inson uchun hayotda eng to'g'ri yo'l Vatanga, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish ekaniga ishonch hosil qildim.

Shu o'rinda bir voqea esimga tushib ketdi. 2022-yilgi uchrashuvda yosh tadbirkor yigit havas bilan Prezidentimizdan u kishidagi tuganmas energiya, samaradorlik va muvaffaqiyat siri, aniqrog'i, “hayot formulasi” haqida so'raganida, davlatimiz rahbari qisqa qilib “Bunda sir yo'q, sir bitta — Vatanni sevisht kerak”, deb javob bergandi. Men bugun shu haqiqatni o'z vujudimda his qildim. Insonga bu qadar zavqni, bu qadar totli saodatini boshqa hech narsa berolmasa kerak. Ushbu mukofot menga to'g'ri yo'lida ekanimni ko'rsatuvchi bir ishora bo'ldi.

Ko'pincha odamlar tadbirkorlarni faqat mol-mulkini ko'paytirish bilan shug'ullanadigan, boyligi ko'p, har ishga qodir va g'am-tashvishsiz inson sifatida tasavvur qiladi. Aslida, unday emas, tadbirkorlar ham, avvalo, inson. Ularning ham yuragida insoniy tuyg'ular kechadi,



o'z oldiga hayotiy maqsadlar qo'yadi, ko'nglida yorug' orzu-umidlari tugadi. Tajribamdan kelib chiqib aytamanki, pul va boylik tadbirkor uchun asosiy maqsad emas, shunchaki maqsad yo'lida kerak bo'ladigan resurs yoki samoyga. Agar boylik asosiy maqsad bo'lganida, hayot mohiyatini yo'qotib, bir o'zanda to'xtab qolardi. Lekin odamning hayoti va insoniylik qiymati boylik o'ttirish bilan o'chanmaydi. Balki kishilarga naf keltiray olgani, qanchalik ko'p ezgu ishga ulgurigani, boshqalarga ruhiy kuch bag'ishlay olganida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, tadbirkorlik yo'lini insonning o'z manfaatidan boshlanib, xalq manfaati tomon uzayishida ko'raman. Bu yo'lining boshida tirikchilik tashvishi, ikkinchi yarmida xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish mas'uliyati turadi. Bugun tadbirkorlik olamiga kirib kelayotgan yosh uka-

singillarimiz shuni anglab olmog'i lozim deb bilaman. Rostini aytсам, bugungi yoshlarning startap, nou-xau, innovatsiya va biznes loyihalar yaratayotganini ko'rib, juda zavqlanaman, havasim keladi. Ular yangilikka, bunyodkorlikka shu qadar o'chki, bunday yoshlar bilan yurtimizning kelajagi buyuk bo'lishiga ich-ichimdan ishonaman.

Aslida, katta avlod va yoshlar o'zi bilmagan holda bir-birini ruhlantiradi, o'sishiga yordam beradi. Katta tadbirkorlar faoliyati, tajribasi, erishgan yutuqlari, muvaffaqiyatlari yoshlarda tadbirkorlikka qiziqish uyg'otadi. Yoshlar bilan muloqotlarda “Falon tadbirkorga havas qilaman” yoki “Falon tadbirkorga o'xshashni istayman” degan gaplarni ko'p eshitamiz. O'z navbatida, kattalar ham yoshlardan rag'bat oladi. Ulardagi yangilikka intilish, kuch-g'ayrat, shijoat bizni ham ruhlantiradi. O'z ustimizda ishlash, zamon talablarini his etish, o'zgarish va raqobatbardosh bo'lishga undaydi. Shuning uchun haqiqiy tadbirkor faqat o'z manfaati doirasida harakat qilmay, hayotga sog'lom nazar bilan qarashi, boshqa tadbirkorlarning yoshidan qat'i nazar, manfaatlarini hurmat qilishi kerak. Shunday ekan, sog'lom raqobat muhiti shakllanadi. Prezidentimiz aynan shunday muhit yaratish uchun tadbirkorlarga juda katta e'tibor qaratyapti. Ular bilan yakkama-yakka suhbatlashib, sohaning ich-ichiga kirib borishning o'zi tadbirkorlarga alohida munosabat shakllaniganing amaldagi ko'rinishidir. Muammolarga yechim izlash, qator imtiyozlar berish, munosib sharoit yaratish uchun ham odam sohani tubdan o'rganishi, tadbirkorlar o'rniga o'zini qo'ya olishi kerak. Yildan yilga imkoniyatlar kengayayapti, sharoit yaxshilanyapti. Shunday ekan, bunga vijdonan baho berib, mamlakat taraqqiyotini, xalq manfaatin o'ylash biz, tadbirkorlarning asosiy maqsadimizga aylanmog'i darkor.

Tadbirkorlik mehnat va halollik bilan uyg'un tushuncha, ya'ni mehnat va halollikni xush ko'radi. Aslida, ishbiarmonlikning barakasi ham shunda. Sohaga

endi kirib kelayotgan, ish boshlagan yosh tadbirkorlarga jamoasidagi ishchilarning mehnatini qadrlash, ishiga yarasha adolati haq to'lashni maslahat bergan bo'lardim. Chunki tadbirkor o'chgan inson o'rmda inson mehnat qiladi va u olayotgan haqiga rozi bo'lishi juda muhim. Ishidan, maoshidan qanoat hosil qilgan xodim uchun ish o'rni qadrli bo'lib qoladi va u bor kuch-g'ayrati bilan mehnat qiladi. Tadbirkorning ishidagi esa baraka oshib boraveradi. Bu sohada yana bir muhim talab halollikdir. G'irromlik va qing'ir-qiyshiq yo'llar bilan pul topish tadbirkorlik yo'lini qisqa qilib qo'yadi. Uzoqni ko'zlagan tadbirkor shubhali yo'lidan yurmaydi, korruptsiyadan uzoq bo'ladi hamda o'z kuchi va salohiyatiga ishonchi orqali muvaffaqiyat sari xotirjam boradi. Bu esa tadbirkorga ham, xalqqa ham, davlatga ham birdek manfaat olib keladi.



E'tirof

Har bir millatning qalbida uning madaniyati va san'ati gavdalanadi. Xalqimiz ma'naviyatining shakllanishida katta hissa qo'shgan, el muhabbatiga sazovor bo'lgan yuksak san'atkorlarni asrab-avaylashimiz, ularning xotirasini e'zozlashimiz shart.

CHIN IJODKORNI EL UNUTMAYDI

Mana shunday buyuk san'at namoyandalaridan biri — marhum otam Oxunjon Madaliyev. U kishi butun hayoti va ijodini xalqqa bag'ishlagan, yurakdan ijro etgan qo'shiqlari bilan millionlab insonlarni ruhlantirgan, muhabbat va Vatanga sadoqatni kuylagan siymolardan biri bo'lgan.

Prezidentimiz bilan turli rasmiy tadbirlarda bir necha bor ko'rishish nasib etgan. Davlatimiz rahbari har gal marhum otam haqida samimiy so'zlar aytib, keyin menga ham “Otangdek inson bo'!” deb tilak bildirganlarida qalbimda faxr-iftixor bilan birga mas'uliyat tuyg'usi ham kuchaygan. Bunday e'tibor va dalda men uchun beqiyos baxt.

Mustaqilligimizning 34 yilligi bayrami arafasida otam “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangani haqidagi yangilik oilamiz uchun unutilmas, quvonchli voqea bo'ldi. Bu yuksak mukofotni nafaqat otamning xotirasiga bo'lgan e'tirof, balki xalqimiz va san'at ahliga ko'rsatilayotgan ehtirom sifatida qabul qilaman.

Shu bilan birga, bu e'tirof menga yanada katta mas'uliyat yukladi — xalqimiz va yurtimiz uchun munosib xizmat qilish, ishonch va e'tiborga loyiq bo'lish burchimdir.

Otamning hayotidan o'tganlariga 25 yildan ziyod vaqt o'tdi. Ammo shunga qaramay, ularning nomi, ijodi xalqimiz qalbida tirik. Xonadonimiz eshigi har doim ochiq — turli hududlardan mehmonlar kelib, otamni xotirlab, duo qilib ketishadi. Bu holat bir haqiqatni ko'rsatadi: chin ijodkorni xalq unutmaydi.

Prezidentimizning bunday yuksak e'tibori otamning hayoti va faoliyatiga berilgan yuksak baho, shu bilan birga, xalq xotirasida abadiy qolishining yana bir isbotidir. U kishining qilgan xizmati, ijodiy merosi el qalbida yashayverishini bilganim uchun o'z zimmi baxtli his qilaman.

Shu o'rinda oilamiz, yaqinlarimiz, otamning san'atini ardoqlaydigan barcha muxlislar nomidan Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildiraman. Bu orden oilamiz uchun ulkan iftixor bo'ldi. E'tibor va e'zozdan ruhlangan holda, otam san'atini munosib davom ettirishga harakat qilaman, el-yurt xizmati uchun bor imkoniyat va kuchimni bag'ishlayman.

Kilichbek MADALIYEV,
xonanda

MEHNATNING QADRLANISHI O'ZARO HURMAT VA BIRDAMLIKNI OSHIRADI

Tohir SAIDOV,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

Avvalo, barcha yurtdoshlarimizni yaqinlashib kelayotgan eng ulug', eng aziz bayramimiz — mustaqilligimizning 34 yilligi bilan chin qalbidan muborakbod etaman. Erkimiz, hurriyatimiz, taraqqiyotimiz asosi bo'lgan ushbu bayram har bir xonadonga shukuh va farovonlik olib kirsin, dasturxonlarimiz to'kin bo'lsin.

Bu yil mamlakatimizda barcha soha — qurilish, ijtimoiy himoya, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, tibbiyot va boshqa yo'nalishlarga katta e'tibor qaratildi. Har bir sohada yangilanishlar jarayoni davom etyapti, xalqimizning hayoti yaxshilanmoqda. Xalq farovonligi uchun siddiqdildan xizmat qilgan har bir inson qadrlanmoqda. Bu e'tirof ularni yangi yutuqlarga ilhomlantirmogda.

San'at olamida 40 yillik tajribaga ega ijodkor sifatida keyingi yillarda madaniyat sohasiga e'tibor avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshganini ta'kidlamogchiman. Viloyat, tumanlarda ishlayotgan madaniyat xodimlari ham munosib taqdirlandi, mehnati yuksak baholandi. Bu e'tibor barcha san'atkorlar uchun katta rag'bat va ilhom manbai bo'ldi.

San'atkorlari jo'shqin ijodga, ko'nglida shu kunlarga yetkazsin, deya niyat qilishga undaydigan omillardan biri “O'zbekiston Respublikasi xalq artisti” faxriy unvonidir. Bu yuksak e'tirofqa loyiq ko'rilganidan bag'oyat xursand bo'ldim. Bu men uchun nafaqat katta sharaf, balki juda yuksak mas'uliyat va yangi imkoniyatlar eshigini ochgan voqea.

Ushbu e'tirof nafaqat o'zim, balki yaqinlarim, hamkasblarim va muxlislarim uchun ham katta quvonchli hodisa bo'ldi. Bular menga kuch va ishonch bag'ishladi,



albatta. Har bir insonning mehnati qadrlansa, jamiyatda ham o'zaro hurmat va birdamlik kuchayadi.

Harbiylarda bunday gap bor: “Generallikni orzu qilmagan askar — askar emas”. San'at olamida ham yoshlarimiz ushbu orzu bilan yashaydi, mehnat qiladi. Ular ham yuksak maqomga erishishni, o'z mehnati bilan xalqning mehrini qozonishni orzu qiladi. Ayni damda yuragimdan kechayotgan xursandlik va faxr tuyg'usini barcha san'at muxlislari, ijodkorlar his etishini tilayman.

Yurtimiz tinch, osoyishta bo'lsin, xalqimiz baxtli va farovon yashasin! Madaniyat va san'at rivojlansin, yangi, yosh iste'dodlar dunyoga kelsin. Buyuk va mushtarak orzularimizni birgalikda amalga oshiraylik!

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Kun mavzusi

Toshkent shahrida qurib bitkazilgan Olimpiya shaharchasi imkoniyatlari bilan tanishish chog‘ida Prezidentimiz stol tennisi hammabop, arzon va qulay sport turi ekanini ta’kidlab, har bir maktab va mahallada uni ommalashtirish, zarur anjomlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish yuzasidan mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.



Sherzod KUDBIYEV,
O‘zbekiston stol tennisi
federatsiyasi raisi

Mamlakatimiz nomdor va dovrulik chempionlar yurtiga aylangani hech kimga sir emas. Buni xorijlik ekspert va tahlilchilar e’tirof etishi ham odatiy holga aylanib qoldi. Butun dunyo e’tiborini tortadigan xalqaro musobaqa va nufuzli anjumanlarga mezbonlik qilish borasida shakllangan milliy tajriba esa ko‘pchilikning havasini uyg‘otmoqda.

Yuqoridagi fikrlar isbotini birgina stol tennisi misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yil 28-31-may kunlari 20 ga yaqin davlatning 300 nafardan ziyod yosh sportchisi poytaxtimizda jam bo‘lgani, ular ishtirokida Xalqaro stol tennisi federatsiyasi — ITTF tasnifidagi “WTT Youth Contender Tashkent” turniri yuksak saviyada o‘tkazilgan diqqatga sazovor.

Oradan ko‘p o‘tmay, ya’ni 26-iyun-2-iyul kunlari sport hamjamiyatining nihoyi yana O‘zbekistonga qaratildi. Ayni shu sanalarda yurtimizda ilk bor stol tennis bo‘yicha yoshlar o‘rtasida qit’a chempionati kutilganidan-da a’lo darajada uyushtirildi. Alohida ta’kidlash joizki, Osiyo stol tennisi ittifoqi 30 ga yaqin mamlakat vakillari qatnashgan bu musobaqaning tashkiliy jihatlarini yuksak baholadi.

Xo‘sh, qisqa muddatda bunday yutuqlarga erishishning omillari nimalardan iborat? Qanday sa’y-harakatlar ushbu muvaffaqiyatlarga mustahkam zamin bo‘lmoqda?

Istiqlol bayramiga munosib tuhfa

Yangi O‘zbekistonning sport islohotlari haqidagi gapimizni bejiz Olimpiya shaharchasidan boshlamadik. Mazkur majmua so‘nggi yillarda sohada amalga oshirilgan ishlar yuksak nuqtasi yanglig‘ bo‘y ko‘rsatdi. Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik shodiyonasi arafasida turli ijtimoiy obyektlar qatorida eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan sport maskanining ochilishi, xalqimiz iborasi bilan aytganda, katta to‘yga katta to‘yona bo‘ldi.

Futbol

2025-yil O‘zbekiston futbol bo‘yicha xalqaro maydonlarda tarixiy natijalarni qayd etdi. Xalqimizning 34 yillik orzusi ushulishi, ya’ni O‘zbekiston terma jamoasining futbol bo‘yicha jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritishi, O‘zbekiston o‘smirlar terma jamoasining Osiyo kubogi finalidagi yorqin g‘alabasi shular jumlasidan.

Albatta, bu yutuqlar yurtimizda so‘nggi yillarda sportga qaratilayotgan ulkan e’tibor, sohada amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar hamda hududlarda muntazam futbol sport musobaqalari tashkil etilayotgani samarasidir.

Ayniqsa, 2021-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan futbol hamda mini-futbol bo‘yicha Davlat xavfsizlik xizmati kubogiga yoshlarimizning qiziqishi yil sayin ortmoqda.

Olimpiya shaharchasi:

o‘zbek sportining ilmiy-amaliy va o‘quv-mashg‘ulot markazi

Olimpiya shaharchasi qurilishiga 2022-yil 9-noyabrda tamal toshi qo‘yilgan. O‘shanda davlatimiz rahbari bu joy xalqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyati va o‘zbek sportining olamshumul yutuqlari ramziga aylanishi, me’moriy jihatdan mukammal, energiyatejkor va ilg‘or innovatsion yechimlarni mujassam qilgan noyob majmua bo‘lishini ta’kidlagan edi.

Shunday bo‘ldi ham. Qisqa vaqt ichida 100 gektardan ziyod maydonda muhtasham imoratlar qad rostlandi. Shaharchadagi 5 ta asosiy sport inshootining biri velodrom bo‘lib, u murakkab muhandislik yechimlari negizida barpo etilgan.

Trekka yorug‘lik bir xil va teng darajada tushadi. Bu sportchilarga qulay bo‘lishi bilan birga tomosha va teletranslyatsiya me’yorlariga ham mos. O‘rindiqlar 2200 kishiga mo‘ljallangan. Xalqaro olimpiya qo‘mitasining yangi talabi bo‘yicha tomosha joylariga himoya to‘sig‘i o‘rnatilgan.

Biz uchun yana bir muhim tomoni velodrom o‘rtasida stol tennis musobaqalari va mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun qulay sharoit yaratilganidir. Boshqacha aytganda, ommaviyligi bo‘yicha jahonda kuchli beshta sport turidan biri sanalgan stol tennis murabbiylari va mutaxassislari ularga eng zamonaviy maskan taqdim etilganidan qanchalik minnatdorligini so‘z bilan ta’riflash mushkul.

Albatta, hammani quvontirgan ushbu yangilik davlatimiz rahbarining jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishiga, xususan, stol tennisini yanada rivojlantirishga qaratayotgan yuksak e’tiborining amaliy natijasidir. Olimpiya shaharchasi — o‘zbek sportining ilmiy, amaliy, o‘quv-mashg‘ulot markazi. Zero, bu yerda mashg‘ulotlar bilan birga sport ta’limi, ilmi, tibbiyoti mujassamlashgan.

Taqdimotlar bilan tanishuv paytida Prezidentimiz stol tennisini yanada ommalashtirish masalasiga alohida urg‘u berdi. Odamlarimiz shu sportni yaxshi

ko‘rishini inobatga olgan holda ularni qo‘llab-quvvatlash, har bir mahallaga kirib borishi lozimligini ta’kidladi. Mutasaddilarga sohani raqamlashtirish, sport federatsiyalari faoliyatini kuchaytirish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yangi loyihalarni amalga oshirish zarurligini uqtirdi.

Izchil islohotlar samarasi raqamlarda namoyon

O‘tgan asr oxiri, aniqrog‘i, 1988-yili Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan stol tennisini yurtimizda taraqqiy ettirish,



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

professional sportchilar tayyorlash, aholi keng qatlamlari orasida ommalashtirish borasida erishilgan yutuqlar tahliliga o‘tishdan oldin jozibador o‘yinning tarixidan bir shingil ma’lumot keltirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Ko‘hna Chin saltanatining o‘rta asrlarga oid yozgi saroylari devorlarida o‘sha davr odamlari ping-pong o‘ynayotgani aks etgan suratlar hozirgacha saqlanib qolgan.

musobaqalarda g‘oliblikni hech kimga bermagan.

Keyinchalik muzaffarlik tug‘i asta-sekin Yevropadan Osiyoga ko‘cha boshlagan. Hozirgi kunda xitoylik stol tennischilar Ma Lun, Fan Chjendon, Chen Men va boshqalar dunyo yoshlari uchun namuna sanaladi. O‘zbekistonlik yigit-qizlar ham mashg‘ulotlarga tayyorlanishda ular qo‘llayotgan usullarni o‘rganish, taktikalarini videotahlillar orqali o‘zlashtirishga harakat qilyapti.

Ajab emas, yaqin kelajakda mamlakatimizdan ham ping-pong bo‘yicha Olimpiya va jahon chempionlari, qit’aviy musobaqalar sovrindorlari yetishib chiqsa. Zotan, Respublika stol tennis federatsiyasi tomonidan Sport vazirligi va Soliq qo‘mitasi ko‘magida amalga oshirilayotgan ishlar o‘z samarasini berishi shubhasiz.

Bu boradagi islohotlar raqamlarda ham yaqqol namoyon bo‘lib turibdi. Jumladan, uch yil muqaddam mamlakatimizda bittagina stol tennis bazasi faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, hozir ularning soni 15 taga yetib, eng zamonaviy anjomlar bilan ta’minlandi.

Bolalar va o‘smirlar bilan bevosita ishlaydigan murabbiylar soni ikki barobar

ko‘payib, 650 nafardan oshgani imkoniyat eshiklarini ochishga xizmat qilayotir. Bugungi kunda yurtimizda qariyb 73 ming nafar sportchi stol tennis bilan doimiy shug‘ullanayotgani ham oddiy raqamlar emas.

Yana bir jihati, ilgari musobaqa o‘tkazilganini birov bilib, birov bilmay qolardi. Endilikda esa qat’iy taqvim asosida jahon andazalari darajasida tashkil etilmoqda. Keyingi yillarda mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan 30 ta musobaqaning aksariyati ITTF belgilagan mezonlarga mos ravishda uyushtirilgani fikrimiz dalilidir.

Alohida ta’kidlash joizki, ana shu bahslarda sportchilarimizning ham, hakamlarimizning ham, murabbiylarimizning ham tajribasi sezilarli darajada oshdi. Endilikda nufuzli turnirlarda shunchaki ishtirok etib kelishmas, balki jahonning manaman degan chempionlariga raqobatchilik qilish asosiy maqsad etib belgilangan. Shu ma’noda, kelasi yili 6 ta xalqaro musobaqaga mezbonlik qilish tadorigi hozirdan boshlangani e’tiborga molik.

Federatsiya faoliyatining yaqin muddatga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi”ga ko‘ra, hududlardagi 1300 ta mahallaga, 256 ta umumta’lim maktabiga, ko‘plab oliy o‘quv yurtlari va istirohat bog‘lariga tennis stollari, zamonaviy raketka va standartga mos koptokchalar yetkazib beriladi.

O‘zbekiston stol tennis federatsiyasi uchun alohida bino qurib foydalanishga topshirilgani ham muhim voqea bo‘ldi. Umumiy maydoni 2100 kvadrat metnri tashkil etgan inshootni bunyod qilish va uni jihozlash uchun tadbirkorlar homiyligi hisobidan muayyan miqdorda mablag‘ ajratildi. Natijada majmuaning bir kunlik qatnov quvvati 150 kishidan oshirilib, stol tennisi ixlosmandlariga barcha sharoitlar yaratildi.

Nima uchun stol tennis o‘ynab turish kerak?

Hech e’tibor berganmisiz, mahallalar va ko‘p qavatli uylar atrofida stol tennis o‘ynab, o‘ziga xos musobaqa uyushtiradigan bolalarni uchratish mumkin. Ular stol tennis uchun zarur sport inventarlari topolmasa, qo‘lbola usullarni qo‘llab, shu o‘yin bilan mashg‘ul

bo‘ladi. Ko‘pchilik mehnat jamoalarida ham xodimlarga stol tennis o‘ynashiga shart-sharoit yaratilgan.

Chunki stol tennis yoshu qari uchun ommabop sport turi hisoblanadi. Ping-pong ni yoqtirmaydigan kishini topish mushkul. Bir tomondan u insonga zavq bag‘ishlarsa, ikkinchi tarafdan salomatlikka foydasi begiyos.

Stol tennis bilan shug‘ullangan kishida ko‘rish qobiliyati yaxshilanadi. Uzoqni yaxshi ko‘ra olmaydigan, kompyuter qarshisida ko‘p o‘tiradigan yoki ko‘zini biror xastalikdan davolatgan kishilarga stol tennis katta yordam beradi. Chunki o‘yin vaqtda insonning butun diqqat-e’tibori faqat koptokchaga qaratilgani bois, ko‘z qisqa masofa atrofida tinimsiz mashq oladi.

Ping-pong nafas va yurak-qon tomir tizimlari faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin vaqtda bir daqiqa oraliq’ida sportchi 120 tagacha zarba berishi barobarida chaqqonlik va abjirlikni o‘rganadi. Unda asabni tinchlantirish ko‘nikmasi shakllanadi. Bundan tashqari, bu o‘yin oyoqning boldir muskullarini mustahkamlaydi. Velosport, konkida uchish, futbol, basketbol, umuman, oyoqni ko‘p ishlatish talab etiladigan boshqa sport turlarida ham juda asqatadi. Tez yugurish, boshlang‘ich tezlikni oshirishda ham stol tennisning o‘rni muhim.

Diqqatni bir joyga jamlab, hozirjavob bo‘lishda bu sportning ahamiyati katta. Masalan, aksariyat bokschi raqibiga tezkor javob qaytarishni o‘rganish maqsadida stol tennis bilan shug‘ullanadi. Negaki bu bilan ular turlicha usulda zarba berish texnikasini o‘zlashtiradi.

Bitta o‘yin davomida sportchi kamida to‘rt chaqirim yugurishga teng harakat qilishini soha olimlari allaqachon hisoblab chiqishgan. Tadiqiqotchilar, shuningdek, ping-pong o‘ynayotgan kishi basketbolchidan ko‘proq energiya sarflashini isbotlashgan. Bugungi professional stol tennisida koptokcha tezligi soatiga 170 kilometr ga chiqayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu ma’lumotning aksioma ekanligi yanada oydinlashadi.

Biz yuqorida stol tennis tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishiga bejiz urg‘u bermadik. Kosmonavtlar tayyorlanadigan o‘quv markazlari isbotlashgan stol tennis mashg‘ulotlari doimiy ravishda o‘rin olgani ham fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Xulosa o‘rinda qayd etish joizki, hozirgi kunda O‘zbekiston stol tennis federatsiyasining barcha mutasaddi va mutaxassislari “Los-Anjeles — 2028”ga tayyorgarlik doirasida Olimpiya o‘yinlariga 2 ta litsenziyani qo‘lga kiritish, 114 ta xalqaro musobaqada munosib ishtirok etish, xorijda 20 dan ortiq o‘quv mashg‘uloti o‘tkazish, chet eldan malakali murabbiylar, jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa mamlakatlardan kuchli mutaxassislarni taklif qilish yuzasidan muzokaralar olib bormoqda.

Xalqaro hamkorlik doirasida Belarus stol tennis federatsiyasi bilan memorandum imzolandi. Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va Germaniya bilan umumiy investitsiya miqdori bir million dollari tashkil etadigan loyihalar tasdiqlanishi kutilyapti. Jumladan, bugungacha amalga oshirilgan ishlar natijasi bilan Olimpiya standartlariga javob beradigan 185,3 ming dollarga tennis stollari va boshqa sport anjomlari olib kelindi.

Bularning barchasi davlatimiz rahbari sohaga qaratayotgan yuksak e’tiborning hayotdagi — odamlar ko‘z o‘ngida ro‘y berayotgan tasdig‘idir.

Bunday e’tibor natijasida yaqin kelajakda stol tennis tarixiga o‘zbekning “Viktor Barna” va “Mariya Medyanski” kabi qahramonlari o‘z nomini yozishiga shubha yo‘q.

bellashuvlarda Navoiy viloyati, Toshkent shahri va Samarqand viloyati jamoalari shohsupaga ko‘tarildi. O‘g‘il bolalar orasida esa Toshkent shahri, Samarqand hamda Qashqadaryo viloyati jamoalari kuchli uchlikdan joy oldi.

G‘olib jamoalar mahallasida turli sport inshootlari qurilishi sportning yanada ommalashtirish, yosh o‘g‘il-qizlarimizning jismonan sog‘lom, aqlan yetuk avlod bo‘lib yetishishiga zamin yaratishi bilan yanada ahamiyatlidir.

Musobaqada o‘g‘il bolalar o‘rtasida futbol va mini-futbol bo‘yicha g‘olib bo‘lgan jamoalar mahallasiga mini-futbol maydoni, ikkinchi o‘rinni egallagan jamoalar uchun universal sport maydoni (basketbol va voleybol o‘yinlari uchun mo‘ljallangan), uchinchi pog‘onadan joy olgan jamoalar mahallasiga “Stribol” (bir savatli ko‘cha basketboli) sport maydoni qurib beriladigan bo‘ldi. Qizlar musobaqasida g‘olib va sovrindor bo‘lgan jamoalar pul mukofoti bilan taqdirlandi.

“Jar” stadionida o‘tkazilgan final uchrashuvi doirasida elimiz suygan san’atkorlar ishtirokida namoyish etilgan konsert dasturi musobaqa ishtirokchilari hamda muxlislarga yuqori kayfiyat ulashdi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

XALQARO YASHIL MAYDONLARGA YO‘L MAHALLALARDAN BOSHLANADI

Bu yil DXX kubogi musobaqalarida 251 ming nafardan ortiq mahalla yoshlari qamrab olingani so‘zimizni isbotlaydi.

Joriy yil musobaqaning birinchi bosqich bahslari aprel-may oylarida tuman, shaharlar kesimida o‘tkazilgan bo‘lsa, iyun-iyul oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida ikkinchi bosqich musobaqalari bo‘lib o‘tdi. O‘tgan hafta DXX kubogining so‘nggi, hal qiluvchi respublika bosqichi o‘tkazildi.

DXX kubogining futbol bo‘yicha “Jar” stadionida o‘tkazilgan final o‘yinida Sirdaryo viloyati Yangiyer shahrining “Abdurahmon Jomiy” MFY yoshlaridan iborat jamoa Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanining “Qoratepa” MFY jamoasi futbolchilari bilan kuch sinashdi.

Uchrashuvning dastlabki daqiqalarida jamoalar teng kurash olib bordi. Keyinchalik esa sirdaryolik yoshlar ustunlikni o‘z qo‘liga oldi. Lekin ketma-ket hujum tashkil etishlariga qaramay, birinchi bo‘limda hisob ochildi. Ikkinchi bo‘limda esa o‘yindagi



ustunlik hisobda o‘z aksini topib, sirdaryolik futbolchilar gol urishga muvaffaq bo‘ldi. Yakunda “Abdurahmon Jomiy” MFY yoshlari jamoasi raqiblarini 1:0 hisobida mag‘lub etdi. Shu tariqa “Qoratepa” jamoasi ikkinchi o‘rin, Toshkent shahri jamoasi esa uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Bahsni kuzatganlar o‘yin professional darajada tashkil etilganini alohida qayd etib, musobaqaning futbolni xalqimiz orasida yanada ommalashtirish hamda soha rivojida ahamiyatini yuqori baholadi.

— Bir necha yillardan buyon professional darajada tashkil etilayotgan



DXX kubogi xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz orasida futbolga qiziqishni oshirish, ushbu sport turini ommalashtirishda katta rol o‘ynamoqda, — deydi O‘FA vitse-prezidenti Odil Ahmedov. — Shuningdek, musobaqa qatnashchilari orasidan iqtidorli yoshlar saralanib, professional futbolga jalb etilayotgani futbol rivojiga ham salmoqli hissa qo‘shmoqda. Shu jihatlar bilan bunday musobaqalarning ko‘proq o‘tkazilishi o‘zbek futbol taraqqiyoti uchun foydali deb hisoblayman.

“Bunyodkor” futbol akademiyasi maydonlarida o‘tkazilgan DXX kubogining mini-futbol bo‘yicha final bahslari ham qizg‘in kechdi. Qizlar o‘rtasidagi



Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bu imoratning har bir g‘ishti shunchaki qo‘yilmayapti, u vatanparvar yuraklarning zarbi, uyg‘oq tafakkurlar uchquni bilan sayqallanmoqda. Kelajagimizni birovlarining andazasi bilan emas, o‘z milliy qadriyatlarimiz va umumbashariy yutuqlar uyg‘unligi asosida barpo etmoqdami. Bu — o‘z yo‘limizni topish, o‘z so‘zimizni aytish va o‘zligimizni dunyoga namoyon etish davri.

Ayni imorat g‘isht va toshdan emas, tafakkur va g‘ayratdan, ziyo va ma‘rifatdan, ilm va san‘atdan qad rostlamoqda. Uning me‘mori — xalq ishonchini oqlashni o‘zining bosh maqsadi deb bilgan Prezidentimiz, quruvchilari esa shu Vatanga o‘z taqdirini bog‘lagan fidoyi yurtdoshlarimiz hisoblanadi. Bugun shu imoratning har bir naqsh-u nigori, ustuni-yu ravoqlariga teranroq nazar tashlab, uning dunyoga qanday bo‘y cho‘zayotganini anglashga harakat qilamiz.

Har qanday ulug‘vor inshoot mustahkam poydevor uzra quriladi. Bizning ma‘naviy imoratimiz poydevori esa ikki buyuk unsurning — ajdoddardan meros zamin hamda ma‘rifatdan yog‘du olgan shuumning bebaho qorishmasidan iborat. Zamin — Xorazmiy risolalarida yashiringan aljabr qudrati, Ibn Sino qalamiga mansub shifo hikmati, Beruniy nigohi yetgan burchlar siri, Sohbiqiron Temur shaxmatidagi daho tafakkur va Ulug‘bek rasadxonasidan koinotga boqqan teran nazar. Bu — asrlar davomida sayqal topgan, hech bir shamolga egilmagan va hech bir bosqinda yo‘qolmagan milliy o‘zligimiz, g‘urur-iftixorimiz.

Mazkur quvvat faqat tarix kitoblarida, muzey javonlarida chang bosib yotadigan meros emas. U bugungi kunimiz uchun ham qudratli ma‘naviy oziq, bitmas-tuganmas ilhom manbaidir. Ajdodlarimizning har bir kashfiyoti, har bir hikmati bugungi avlod qonida oqmoqda, uning shuuriga singdirilmoqda.

Zaminning o‘zi bir tosh kabi. Unga jon ato etuvchi, uni yagona bir butunga aylantiruvchi ilohiy kuch esa ziyo. O‘tgan asr boshida ma‘rifatparvar jadid bobolarimiz millatni uyg‘otmoq uchun ana shu ziyo ni mash‘ala qilib ko‘targan edilar. Bugun o‘sha mash‘ala yangidan alanga olmoqda. Ayni e‘tibor shunchaki shiorlarda emas, balki raqamlar tilida, amaliy harakatlarda o‘zining yaqqol ifodasini topmoqda.

Bu uyg‘onish nafaqat iqtisodiy, shuningdek, avvalo, ma‘naviy-ma‘rifiy uyg‘onish ekanini anglash siyosati. Chunki eng katta investitsiya inson kapitaliga, millat kelajagiga tikilgan sarmoya sanaladi.

Masalan, so‘nggi sakkiz yilda davlat g‘aznasining eng katta qismi aynan kelajak



Zamon — o‘z o‘qida bir maromda aylanib turuvchi charxpalak emas. U goho shiddatli sel bo‘lib oqadi, goho to‘lg‘onib, girdobga aylanadi. Ana shu girdoblar qa‘ridan esa butun bir millatning, xalqning taqdirini yangi o‘zanga burib yuboradigan qudrati to‘lqinlar boshlanadi. Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz to‘rtinchi yilini qarshilar ekanmiz, biz ana shunday tarixiy to‘lqinning nafaqat shohidi, balki bevosita ishtirokchisi, bunyodkori bo‘layotganimizni har lahza his etib turibmiz. Buni shunchaki islohotlar yoki yangilanishlar davri deb bo‘lmaydi. Mohiyatan olganda, u Uchinchi Rennassans deya nom olgan ulug‘vor imoratning poydevoridan to gumbazigacha bo‘lgan bunyodkorlik pallasidir.

poydevori bo‘lmish ta‘lim va tibbiyotga yo‘naltirilayotgani buning yaqqol isbotidir. Birgina misol: agar 2016-yilda yurtimizda bolalarining atigi 27 foizi maktabgacha ta‘limdan bahramand bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 76 foizga yetkazildi. Ushbu raqamlar otida nafaqat yuzlab yangi qurilgan zamonaviy bog‘chalar, yangi ochilgan xususiy va oilaviy ta‘lim maskanlari, eng muhimi, har bir bolaning ertangi kuni uchun mustahkam zamin yaratishga qaratilgan siyosiy iroda mujassam.

Bular sonlar poygasi emas. Har bir bolaning tafakkur uqlarini kengaytirish, uning tug‘ma iste‘dodini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilayotgan teng imkoniyatlar maydoni. Zero, daho bolalar tug‘ilmaydi, ular kashf etiladi va tarbiyalanadi. Bog‘chada yodlagan ilk she‘ridan boshlab ularning qalbiga Vataniy tug‘usi, kitobga mehr singdiriladi.

Maktabgacha ta‘limning ilk bor umumiy majburiy ta‘limning bir qismi sifatida mustahkamlangani esa ushbu poydevorning naqadar puxta va uzoqni ko‘zlab ko‘yilayotganidan dalolat beradi. Maktabgacha ta‘limdan boshlab vujudga kelayotgan yangi tizim, har bir hududda qad rostlayotgan Prezident va ijod maktablari, eng chekka qishloqlardagi o‘qituvchiga bo‘lgan e‘tiborning kuchayishi — bularning bari imoratimizning poydevorini ziyo bilan sug‘orish, uni yanada mustahkamlash jarayoni, desak adashmaymiz.

Bular shunchaki yangi binolar, yangi nomlar degani emas, ta‘limga bo‘lgan falsafaning o‘zgarishi demakdir. Endi maktab partasida faqat yodlash uchun o‘tirgan bola emas, fikrlaydigan, savol beradigan, bahslashadigan va yangi g‘oyalarni o‘rtaga tashlaydigan kashfiyotchi avlod shakllanmoqda.

Tasavvur qiling: yurtimizning olis tog‘li qishlog‘idagi maktab o‘quvchisi xalqaro olimpiadada nufuzli o‘rinni qo‘lga kiritmoqda. Yoki oddiy bir oilaning farzandi robototexnika bo‘yicha o‘zining ilk loyihasini katta-katta investorlar qatnashayotgan ko‘rgazmada taqdimot qilmoqda. Bular endi orzu emas, bugungi kun manzarasi.

Buning zamirida esa bir buyuk haqiqat yotibdi: millatning eng katta boyligi — yer ostidagi neft yoki gaz emas, uning tafakkuri yorug‘, yuragi Vatanga muhabbat bilan to‘la farzandlaridir. Va bu boylikning haqiqiy zargari, unga sayqal beruvchi mohir me‘mori O‘QITUVCHIDIR.

So‘nggi yillarda muallimning jamiyatdagi obro‘sinini tiklash, uning mashaqqatli mehnatini munosib rag‘batlantirish borasida qilinayotgan sa‘y-harakatlar ham ayni shu imorat poydevorining har bir g‘ishtini mehr bilan, ishonch bilan qo‘yishga qaratilgan amaliy qadamlardan hisoblanadi. Albatta, bu yo‘l hali to‘la tekis emas. Eschika tafakkur, qog‘ozbozlik, o‘qituvchini ortiqcha yumushlarga jalb qilish kabi illatlar hali ham bor. Biroq muz eridi, jarayon boshlandi. Va ushbu yo‘ldagi eng katta yutuq o‘qituvchining o‘z qadrini his qila boshlaganidir.



Shu bilan birga, oliy ta‘limga qamrovning 42 foizga yetib, dunyoning nufuzli universitetlari reytinglarida O‘zbekiston oliygo‘hlari soni yil sayin ortib borayotgani ham ayni imorat poydevori naqadar mustahkam va puxta bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Oliygo‘hlar endi diplom beradigan idora emas, balki ilm-fan va ishlab chiqarishni bog‘laydigan innovatsion markazlarga aylanayotir. Buning ortida bolalarimizning qalb ko‘zini ochish, ularga shunchaki bilim berish emas, balki tafakkur qilishni, yaratishni va o‘z tarixiga daxldorlik hissi bilan yashashni o‘rgatish maqsadi yotibdi. Zero, o‘z zaminining qudratini anglagan va ziyo bilan qurollangan avlodgina eng yuksak cho‘qqilarni zabt eta oladi.

Ayni mustahkam zamin va ma‘rifat poydevori uzra endi istiqbol devorlarini tiklash, salobatli ustunlarni qad rostlatish fursati yetdi. Bu devorlar bugungi kun ilm-fanining eng so‘nggi yutuqlari, innovatsion kashfiyotlar va yosh olimlarimizning dadil



“Mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rtinchi yilida biz qurayotgan imoratning qiyofasi tobora aniqroq namoyon bo‘layotir. Uning poydevori — ajdodlar merosi va bugungi ma‘rifatdan, devorlari — ilm-fan yutuqlaridan, bezaklari — o‘lmas san‘atdan va gumbazi — dunyoga ochiq tafakkurdan iborat. Mazkur imorat hali to‘la bitgani yo‘q. Bunyodkorlik jarayoni davom etmoqda. Va bu ulug‘ ishda barchamizning — o‘qituvchining, olimning, shifokorning, hunarmandning, har bir yoshning o‘z o‘rni, o‘z qo‘yadigan g‘ishti bor.

izlanishlaridan bunyod etilmoqda. Ular shunchaki istak emas, aniq va hisob-kitobli bunyodkorlik.

Al-Xorazmiy bobomiz yaratgan algoritmlar bugun raqamli iqtisodiyot shaklida yangicha hayot topmoqda. 2019-yilda poydevoriga ilk g‘isht qo‘yilgan AT Park bugunga kelib, mamlakatimizning barcha hududlarini qamrab olgan, 1400 dan ortiq ilg‘or kompaniyalarni o‘z bag‘riga sig‘dirgan ulkan texnologik markazga aylandi. Uning “devorlari” otida yaratilayotgan dasturiy mahsulotlar eksporti 2024-yilga kelib qariyb 1 milliard dollarga yetgani o‘z mevasini bera boshlagan ilm va e‘tibor daraxtining barakoti emasmi?!

Ushbu raqamlar shunchaki iqtisodiy ko‘rsatkich emas. Bular O‘zbekistonning jahon intellektual bozorida o‘zining munosib o‘rmini egallayotganidan dalolat. Bu yoshlarimizning aql-zakovati endi faqat o‘zimizga emas, balki dunyoga ham kerak bo‘layotganining isboti. Har bir yozilgan dastur kodi, har bir yaratilgan mobil ilova imoratimiz devoriga qo‘yilgan mustahkam g‘isht vazifasini o‘tayotgani ham ayni haqiqat.

“One Million Uzbek Coders” kabi loyihalar esa imoratning yangi me‘morlarini — 2017-yilda sanoqlik bo‘lgan mutaxassislar o‘rniga bugun 100 mingdan oshib bora boshlagan dasturchi, kibernetik va innovatsion dasturkorlik, qabuliyotdan tortib, nafaqat AT sohasini, balki bankdan tortib, qishloq xo‘jaligigacha, tibbiyotdan tortib, soliq tizimigacha bo‘lgan yigirma dan ortiq sohani raqamli “qon tomirlar” bilan bog‘lab, mamlakat iqtisodiyotiga yangi ruh bag‘ishlamoqda.

Endilikda fermer o‘z hosilini daladan turib onlayn sotmoqda, shifokor olis qishloqdagi bemorga innovatsion tezkor maslahat bermoqda, aholi esa davlat xizmatlaridan uyidan chiqmasdan foydalanmoqda. Bu raqamlashtirishning odamlar hayotiga kirib borishi, ularning og‘irini yengil qilishga xizmat qilayotganining yorqin misolidir.

Qachonlardir Mirzo Ulug‘bek yulduzlarni kuzatgan zaminda, bugun uning munosib avlodlari sun‘iy intellekt sirlarini o‘rganmoqda, biotexnologiya sohasida yangiliklar yaratmoqda, “yashil energetika”ning eng samarali yo‘llarini izlamoqda.

Yurtimizning ochiq kengliklarida shamol turbinolari, Buxoro va Navoiyning quyoshli hududlarida esa ulkan fotoelektr stansiyalari qad rostlayapti. Bu shunchaki elektr energiyasi ishlab chiqarish emas, tabiatga ozor yetkazmasdan taraqqiyotga erishish falsafasi, kelajak avlod oldidagi mas‘uliyat hissidir. Suvni tejaydigan aqlli texnologiyalar qishloq xo‘jaligiga kirib kelayotgani esa hayot manbai bo‘lgan suvga ehtiromning amaldagi ifodasi hisoblanadi.

Kun sayin soni ortib borayotgan ilmiy startaplar, ularni yanada ko‘paytirish uchun yaratilayotgan sharoitlar ilm-fanning har bir g‘ishtini ehtiyoqkorlik bilan terib, kelajak devorlarini puxta qurish jarayoni emasmi? Laboratoriyalar — bugungi zamonning o‘ziga xos obyekti, bu yerda nazariy bilimlar amaliy kashfiyotlarga aylanadi, yoshlarning intilishlari, natijalari esa Vatani taraqqiyotining mustahkam ustunlari bo‘lib boraveradi. Ilm borgan sari shunchaki kitobiy tushuncha yoki tor doiradagi mutaxassislar shug‘ullanadigan mashg‘ulot emas, balki iqtisodiyotimizning harakatlantiruvchi kuchiga, jamiyatimiz hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Har qanday bino, garchi devorlari mustahkam, ustunlari baqquvat bo‘lmasin, o‘zining betakror bezaklari, jilvakor naqshlari bo‘lmasin, ruhsiz tosh uyumidan farq qilmaydi. Binoga jon ato etadigan, uning kimligini, qaysi elga mansubligini ko‘rsatadigan narsa uning bezaklaridir. Bizning ma‘naviy imoratimiz bezaklari — xalqimizning ming yilliklar davomida yaratgan o‘lmas madaniyati va san‘ati durdonalaridir. Shashmaqomning yurakka orom beruvchi navolari, baxshilar dostonidagi mardlik va ezigulik tarannumi, kulolning qo‘lida hayot topgan moviy naqshlar, shohiso‘zanaga bitilgan taqdiralar falsafasi — bularning bari shunchaki san‘at namunalari emas, millat ruhining ranglari, qalbining ifodasi.

Bu ranglar o‘chmasligi, navolar so‘nmasligi uchun ham ulkan ishlar amalga oshirilayotir. Ustalaridan shogirdlarga o‘tib

kelayotgan hunarmandchilik an‘analarini saqlab qolish va rivojlantirish uchun alohida dasturlar ishlatilmoqda. Har bir viloyatda o‘ziga xos madaniy markazlar, etnohududlar barpo etilmoqda. Bugungi aksariyat yoshlar endi atlasni “buvimning kiyimi” deb emas, balki dunyo podiumlarini zabt etayotgan milliy brend sifatida faxr bilan kiyayotgani qay birimizni quvontirmaydi?

So‘nggi yillarda bu bebaho xazinani dunyoga ko‘z-ko‘z qilish borasida katta-katta ishlar amalga oshirilayotgani quvonchli. Madaniy merosimiz namunalarining UNESCO tomonidan e‘tirof etilishi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo‘qon kabi shaharlarimizda o‘tkazilayotgan xalqaro anjumanlar dunyo ahlining diqqat markazida bo‘layotgani — imoratimizning tashqi devorlariga o‘lmas ruh naqshlarini toqat bilan chizayotganimiz belgisi sanalgay.

Ushbu naqshlar faqat tashqaridan ko‘rinish uchun emas. Ular ham imorat ichidagi muhitni, ham insonlar qalbini nurafshon qiladi. Yangi qurilayotgan, ta‘mirlanayotgan madaniyat maskanlari, kino va konsert saroylari, muzeylar va kutubxonalar xalqimizning ma‘naviy hordiq chiqarishi, estetik didini yuksaltirishi uchun zamin yaratadi. E‘tibor bering, san‘at endi faqat poytaxtning mulki emas, u eng olis tumanlarga, qishloqlarga kirib bormoqda.

Bu naqshlar orqali dunyo bizni, bizning kimligimizni, qanday buyuk madaniyat vorislari ekanimizni taniydi va tan oladi. Har bir sayyohning qadimiy obidalarimiz oldida hayratga tushishi, har bir xorijiy san‘atshunosning madaniyatimiz oldida tan berishi bizga nisbatan haqqoniy baho sanaladi.

Nihoyat poydevori mustahkam, devorlari salobatli, naqshlari betakror imorat o‘zining eng yuksak, eng ko‘rkam qismi — gumbaziga ehtiyoj sezadi. Gumbaz — poydevor, devorlar va naqshlarni o‘zida birlashtirib, ularga yakuniy ma‘no va mukammallik baxsh etadigan me‘moriy unsur. Bizning Uchinchi Rennassans imoratimizning gumbazi dunyoga ochiq tafakkurimiz, jahon sivilizatsiyasi bilan hamnafaslik, global ilm-fan va madaniyat yutuqlariga dadil intilishimiz ramzidir.

Bu gumbaz ochiq va pragmatik tashqi siyosatimiz timosolidir. Markaziy Osiyo-da do‘stlik va yaxshi qo‘shnchilik muhitini mustahkamlash, jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish mazkur gumbaz qirralarini tashkil etadi. O‘zbekiston endi bir chetda kuzatib turadigan diyor emas, balki global jarayonlarning faol ishtirokchisiga, mintaqaviy barqarorlikning muhim tayanchiga aylanib borayotgan muhim mamlakatdir. Darhaqiqat, qo‘shni davlatlar bilan chegaralarning ochilishi nafaqat savdo-sotiqni, balki minglab oilalar diydorini, yillar davomida uzilgan jigarchilik aloqalarini qayta bog‘ladi.

Bu gumbaz ostida endi bizning yoshlarimiz dunyoning eng nufuzli universitetlarida ta‘lim olib, vataniga yangi bilimlar bilan qaytmokda. Olimlarimiz xalqaro ilmiy hamjamiyatlarining teng huquqli a‘zosi sifatida global muammolar yechimiga o‘z takliflarini bildirmoqda. Bu gumbaz ostida tor milliy qobiqaga o‘ralib qolish emas, aksincha, milliy o‘zlikni saqlagan holda umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo‘lish falsafasi yotadi. Ayni gumbaz bizni dunyodan to‘smaydi, aksincha, dunyo bilan bog‘laydi. Uning moviy rangi osmon bilan, tinchlik bilan tutash. Uning ostidan turib biz nafaqat o‘z o‘tmishimizni, balki butun insoniyatning yorug‘ kelajagini ham ko‘ra olamiz.

Shunday qilib, Mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rtinchi yilida biz qurayotgan imoratning qiyofasi tobora aniqroq namoyon bo‘layotir. Uning poydevori — ajdodlar merosi va bugungi ma‘rifatdan, devorlari — ilm-fan yutuqlaridan, bezaklari — o‘lmas san‘atdan va gumbazi — dunyoga ochiq tafakkurdan iborat. Mazkur imorat hali to‘la bitgani yo‘q. Bunyodkorlik jarayoni davom etmoqda. Va bu ulug‘ ishda barchamizning — o‘qituvchining, olimning, shifokorning, hunarmandning, har bir yoshning o‘z o‘rni, o‘z qo‘yadigan g‘ishti bor.

Daladagi dehqonning peshona teri bilan yetishirilgan har bir boshqoq don bu imoratning rizqo‘zi. Shifokorning bemorga ato etgan shifosi imorat ahlining salomatligi va quvvati. Tadbirkorning yaratgan har bir ish o‘rni — iqtisodiy poydevorning mustahkamligi. Harbiylarning hushyorligi — tinchlik va osudalik. Onalarning o‘z farzandiga berayotgan odob-axloq — ma‘naviy baqquvatlik kafolatidir.

Zero, biz kelajak avlodlarga nafaqat obod va farovon yurtini, balki mana shunday go‘zal va salobatli, dunyo ahli havas qiladigan buyuk ma‘naviyat va tafakkur imoratini meros qoldirishdek muqaddas bir burch oldida turibmiz. Shubhasiz, biz bu vazifani sharaf bilan ado etajkmiz.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846.
34930 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo‘minova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘Za yakuni — 00:10

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.